Xuddi shu kabi bizlar ham o'z qonunchilgimizga yuqoridagi sanab o'tilgan holatlar va ularning yechimlarini kiritishimiz lozim bo'ladi. Mazkur mavzudagi magistrlik dissertatsiya ishimizda ham ushbu holatlarga o'xshagan hamda chet el fuqarolarini tergov qilishda samarali yordam beradigan qoidalarni qonunchilikka kiritishni taklif qilmoqchimiz..

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/ayollar-tomonidan-sodir-etylgan-ishtirokchilikdagi-jinoyatlarni-tergov-qilish/viewer>
2. Каримов, Х. (2018). Жиноятларни квалификация қилишда жиноят субъекти мезонларининг аҳамияти. Review of law sciences, (2).
3. Специальный раздел (ч. 5) УПК РФ содержит основные положения о порядке взаимодействия следователей, судов с соответствующими органами и должностными лицами иностранных государств и международными организациями, а также порядок выдачи лица для уголовного преследования или исполнения приговора.
4. Положение о помощнике следователя // Пункт 8 Приложения № 22 к приказу МВД России от 4 января 1999 г. № 1 (ред. от 26 января 2009 г.) «О мерах по реализации Указа Президента Российской Федерации от 23 ноября 1998 г. № 1422 ».

MAQSUD SHAHZODANING HAYOT VA IJODINING O'ZBEK ADABIYOTIDAGI O'RNI.

PhD, dotsent Normurodov Sh.U., talaba Normurodov H.U.

normurodovsh25@mail.ru, hasanjonnormurodov@gmail.com,

Annotatsiya. Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning hayot va ijodi o'zbek adabiyotidagi o'rni yoritilgan. Uning yaratgan asarlari ma'naviy merosimiz va boyligimiz hisoblanadi. Hozirgi kunda juda ko'p joylarga Maqsud Shayxzoda nomi berilganligi hamda uning nomiga ta'slim dargohlarida maxsus stipendiyalar ham ta'sis etilishi ijodkor faoliyatiga bo'lgan qiziqishni orttiradi.

Kalit so'zlar: hayoti, asarlari, she'riy to'plamlar, ocherklar, tarjima kitoblar, falsafa, adiblarning fikri, ijodiy do'stleri.

Аннотация. В этой статье освещается роль жизни и творчества Максуда Шайхзады в узбекской литературе. Его творения считаются нашим духовным наследием и богатством. Тот факт, что многие места в настоящее время названы в честь Максуда Шайхзады, а также в его честь учреждаются специальные стипендии в учебных заведениях, повышает интерес к творческой деятельности.

Ключевые слова: жизнь, творчество, сборники стихов, очерки, переводы книг, философия, мысли писателей, творческие друзья.

Abstract. This article covers the role of the life and work of Maqsud Shaykhzoda in Uzbek literature. His works are considered our spiritual heritage and wealth. The fact that a large number of places are now named after Maqsud Shaykhzoda, as well as the establishment of special scholarships in educational institutions in his name, will increase interest in the activities of the creator.

Key words: life, works, poetic collections, essays, translation books, philosophy, opinion of the literary, creative friends.

KIRISH. Ozarbayjon naslidan bo'lib, keyinchalik o'zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Maqsud Shayxzoda 1908 yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug'ilgan. Otasi Ma'sumbek elu-yurtda katta obro'ga ega shifokor edi.

Dastlabki she'riy to'plami — „Loyiq soqchi“ (1932). Shundan keyin shahrining „O'n she'r“ (1932), „Undoshlarim“ (1933), „Uchinchi kitob“ (1934), „Jumhuriyat“ (1935), „O'n ikki“, „Yangi devon“ (1937), „Saylov qo'shiqlari“ (1938), „Kurash nechun?“ (1942), „Jang va qo'shiq“, „Ko'ngil deydiki“ (1943), „O'n besh yilning daftari“ (1947), „Yurt she'rlari“ (1948), „Zamon torlari“, „Olqishlarim“ (1949), „Yillar va yo'llar“ (1961), „She'rlar“ (1964) va boshqa she'riy to'plamlari nashr etilgan. Shoirning dastlabki ijodida va qisman 50 yillardagi ayrim she'rlarida ozarbayjon she'riyatiga xos ohanglar, minbar she'riyat belgilari ustuvorlik qilgan. Ammo Shayxzoda o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyatining tili va uslubini egallagani sayin uning she'rlarida o'zbekona musiqiy raxonlik kuchaya bordi. Shayxzoda voqelikka faol munosabatda bo'lishga intilib, xalq va mamlakat hayotida ro'y bergan muhim voqealarni tasvirlashga, mehnat va kurash qahramonlari obrazini yaratishga alohida e'tibor berdi. U shu maqsadda doston janriga qo'l urib, „O'rtoq mulk“ (1933), „Chirog“, „O'rtoq“, „Meros“, „Tuproq va haq“ (1936), „Ovchi qissasi“, „Iskandar Zulqarnayn“ (1940), „O'n birlar“, „Jenya“, „Oqsoqol“ (1943), „Axmadjonning

hikmatlari“, „Uchinchi o‘g‘il“ (1944), „Nurmat otaning tushi“ (1947) singari liroepik asarlar yozdi. Shoirning 30-40 yillardagi she’riyatiga ham, keyingi ijodiga ham xos muhim fazilatlardan biri syujetlilikdir. Shayxzoda lirk syujet yaratishga moyil shoir sifatida xalq afsonalari va tarixiy o‘tmish sahifalariga, shuningdek, zamondoshlari hayotiga murojaat etib, o‘z she’rlariga balladaga xos poetik belgilar va turli poetik tafsillarni olib kirgan, so‘zning she’riy qurilmadagi mavqeini oshirish choralarini ko‘rgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Maqsud Shayxzoda san’at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqgan. Maqsud Shayxzoda Oqtoshdagi ibtidoiy maktabni bitirgach, 1921 yili Boku dorilmuallikka o‘qishga kiradi va uni tugatgach Dog‘istonning Darband, Bo‘ynoq shaharlarda muallimlik qilgan. U 1926 yili Adhem Fayziy tashkilotiga a’zo etilgan «Milliy firqa» tashkilotiga a’zo bo‘lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928 yili hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho‘ro hukumati Shayxzodani O‘zbekistonda ham ta’qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo‘q. Shayxzoda Toshkentga kelgach, avval Narimonov nomidagi texnikumda dars beradi, keyin “Sharq haqiqati”, “Qizil O‘zbekiston”, “Yosh leninchi” gazetalarida ishlaydi.

1929 yili yosh shoirning o‘zbek tilidagi dastlabki she’ri “Sharq haqiqati” gazetasi sahifalarida bosilib chiqadi. Oradan ko‘p o‘tmay, Shayxzodaning birinchi to‘plami “O‘n she’r”, keyinroq “Undoshlarim” (1933), “Uchinchi kitob” (1934), “Qo‘llar” she’rida qo‘llarda insonning borlig‘ini, uning ichki olamining muhrini ko‘radi. Uningcha, “g‘oyat shafqatli, hayotbaxsh qo‘llar” ham “ayovsiz, yovuz, go‘r kabi sovuq, tanbal” qo‘llar ham bor, qisqasi, har bir qo‘l “yurakning navkarlaridir”, yurak neni buyursa, qo‘l shuni ijro etadi deb ta’riflaydi.

Maqsud Shayxzoda ijodiy balog‘atidan dalolat beruvchi asarlaridan biri “Toshkentnoma” dostonidir. Adabiy jamoatchilik o‘z vaqtida bu dostonni shoirning adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, “Toshkentnoma” Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli bo‘lib, unda shoir shaxsiyatining o‘ziga xos qirralari ancha yorqin namoyon bo‘lgan. Dostondagi o‘ziga xoslik shundaki, asar yaxlit voqeа asosiga qurilgan emas. Shayxzoda ko‘p qirrali iste’dod sohibi bo‘lgan. U she’rlar va dostonlar bilan birga, juda yuksak badiiy quvvatga ega bo‘lgan dramalar ham yaratadi. Shayxzoda umrining so‘ngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagan “Beruniy” dramasini hisobga olmaganda ham, uning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib qoldi.

Shayxzoda ikkinchi jahon urushi yillarda yozgan “Jaloliddin Manguberdi” (1944) tragediyasida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. Oybek bilan G‘afur G‘ulom o‘sha vaqtida asarga yuqori baho berishib: “Tarixiy jarayonning haqiqiy mazmunini, uning ichki ma’nosini” ochib bergen deyishgan edi.

1946-yilgacha “Jaloliddin Manguberdi” dramasidan ayrim parchalar “Armug‘on” to‘plamida bosingan edi. Shundan keyin 43 yil davomida asar tilga olinmadi va dunyo yuzini ko‘rmadi. Asar sahnadan olingandan keyin ko‘p o‘tmay Shayxzoda qamaladi. Bu asarga o‘tmish ideallashtirilgan degan siyosiy ayb qo‘yiladi.

Musodara etilgan buyumlar ichida dramaning qo‘lyozmasi ham bor edi. Muallif oqlanib, qaytib kelganidan keyin muayyan tashkilotlar “yo‘qoldi” degan bahonalar bilan qo‘lyozmani qaytarib bermadilar. Shayxzoda uni bir necha yil qidirishga majbur bo‘ldi va nihoyat, teatrning sobiq suflyorlaridan uning bir nusxasini topishga muvaffaq bo‘ladi. Lekin shunda ham asarning matni e’lon qilinmay qolaveradi.

Taqdirning o‘yinini qarangki, muallif bu asarining chop etilganini ko‘rmay olamdan ko‘z yumdi. “Jaloliddin Manguberdi”ning to‘la matni birinchi marta Bokuda Ozarbayjon tilida Shayxzodaning ikki jildlik saylanmasida bosilib chiqarildi. Faqatgina 1988-yildagina Jaloliddin Manguberdi” birinchi marta o‘zbek tilida yozuvchining “Boqiy dunyo” degan kitobida to‘la bosilib chiqarildi.

Shayxzodaning yozuvchilik va ijodkorlik zehnining o‘tkirligi yana bir bor isbotlanadi. Maqsud Shayxzodaning o‘zbek adabiyotiga qo‘sghan yana bir ulkan hissasi “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasidir. Tragediya 1964-yili yoziladi, o‘sha yili bu asar Hamza teatri sahnasida qo‘yiladi, keyinchalik uning asosida kinofilm yaratiladi.

Shayxzoda adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali qalam tebratib, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining Fozil shoir singari namoyandalari, „Alpomish“, „Shirin bilan Shakar“ kabi asarlari, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Sh.Rustaveli, A.S. Pushkin, N.A. Nekrasov, A.N. Ostrovskiy, T.G. Shevchenko, A.P. Chexov singari namoyandalariga bag‘ishlangan asarlar yezadi. Pedagog olim va shoir sifatida esa talaygina shoir, adabiyotshunos va tanqidchilar Maqsud Shayxzoda yuksak ilm egasi edi. Ayniqsa, u o‘zbek mumtoz adabiyotini chuqr bilar edi. 1941-yilda Toshkentda nashr etilgan “Genial shoir” to‘plami adabiyotshunos olim Shayxzodaning Navoiy ijodiga oid ilmiy maqolalaridan tashkil topgandir. Navoiy she’riyatining bu chuqr ilmiy tadqiqi navoiyshunoslikda hamisha alohida o‘rin egallab qoladi.

Maqsud Shayxzodaning butun ijodi chuqr siyosiy publitsistik ruh bilan to‘la. Uning she’riy, dramatik asarlari qaysi mavzuga bag‘ishlangan bo‘lmasin, zamona bilan hamohangdir. Shuning uchun ham ijodkorning shu tipdagisi bevosita publitsistika janrida xizmat qilishi tasodifiy hol emas. Uning zo‘r badiiy janrga ega bo‘lgan publitsistik maqolalari va nutqlari ushbu iste’dodli adib ijodining mazmundorligi va rang-barangligidan yorqin nishonadir.

Iste’dodli shoir mohir tarjimon ham edi. U jahon adabiyoti mumtoz shoirlarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda katta xizmat qiladi. Jumladan, Shekspirning “Hamlet” hamda “Romeo va Julietta” asarlari o‘zbek drama teatrлari sahnasida Shayxzoda tarjimasida sahnalashtiriladi.

Shoir mahoratining o‘sishiga, uning jahon adabiyotining klassik asarlarini g‘oyat sevib o‘rgangani, ularning boy badiiy tajribasini ustalik bilan o‘zlashtirgani ham sabab bo‘ldi. U G‘arbiy Yevropa va rus adabiyotini mukammal bilgani holda o‘zining Vatan adabiyotini - Sharq she’riyati merosini ham to‘la o‘rgangan edi.

Maqsud Shayxzodani 50-yillar boshida mutlaqo asossiz ravishda qamoqqa oladilar va 25 yilga surgun qiladilar. Stalin vafot etgach, tuhmat bilan nohaq qamalganlarning ishi qayta ko‘rildi. Shu tariqa 1955 yili ko‘pgina fidoyi ziyorolarimiz qatori Shayxzoda ham oqlanib chiqdi. Lekin 5 yillik qamoqxona azoblari natijasida shoirning sog‘ligi juda yomonlashib qolgan edi. Shunga qaramay, umrining oxirigacha 10 yil davomida baland uyning eng yuqori qavatida yashashga majbur bo‘ldi. Ana shunday og‘ir sharoit va xastalikda ham hayotidan sira nolimay umrining oxirigacha ijod qilishdan to‘xtamadi.

Boshidan qanchadan-qancha musibatli kunlar o‘tgan bo‘lmasin, u hech zorlanmagan. Uning iyomon-e’tiqodi, dunyoqarashi, yuqoridagi misralarda teran bayon qilingan. U hech qachon alamzadalik bilan yashamadi. Aksincha, unga xiyonat qilgan, uni azob uqubatlarga, jiddiy xastaliklarga duchor qilganlar haqida hech qayerda, hech narsa demagan. Shayxzoda o‘zining insoniy fazilatlariga sodiq qolib, doimo xayrixohlik va balandlik xislatlari bilan yuksalib yashadi.

Chunki uning chinakam, sodiq do'stlari ham oz emas edi. Bular Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Komil Yashin, Mirtemir, Shukur Burxon kabilar edi.

Shayxzoda adabiy bilim doirasining kengayishi, ijodining mumtoz jahon yozuvchilar badiiy tajribasi bilan boyishida tarjima muxim rol o'ynadi. U Sh. Rustavelining „Yo'lbars terisini yopingan paxlavon“ (hamkorlikda) eposi, U.Shekspirning sonetlari, A.S.Pushkinning she'rlari, „Mis chavandoz“ dostoni, „Motsart va Salyeri“ tragediyasi, M.Yu.Lermontovning she'rlari va „Kavkaz asiri“ dostonini, shuningdek, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat va boshqa yozuvchilarning ayrim asarlarini o'zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qildi.

Maqsud Shayxzoda Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)da, Toshkent Davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent Davlat pedagogika universiteti)da uzoq yillar davomida o'zbek adabiyoti tarixidan o'qigan ma'ruzalar, maxsus kurslari o'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha eng qimmatli darslar edi. Yozuvchi, adabiy dramaturg, tarjima ustasi, buyuk pedagog, tilshunos va adabiyotshunos Maqsud Shayxzoda nomidagi o'quv zali va ekspozitsiya g'oyat nozik did va mohiyatan uyg'unlikda tashkil etilganini Shukur Burxonovdek ulkan san'at darg'asiyu, Jaloliddin Manguberdidek buyuk tarixiy shaxslar siymolari ham aytib turibdi.

Maqsud Shayxzodaning xalqimiz tarixiga, jumladan, Jaloliddin Manguberdi taqdiri va kurashiga odilona yondoshganligi, haqiqatni himoya qilganligi Prezidentimiz Islom Karimov imzosi bilan e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 sentyabrdagi "Jaloliddin Manguberdi" tavalludining 800 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori ham yana bir bor tasdiqlaydi. Shoир 1967-yilning 19-fevralida xastalikdan vafot etadi. Uning vafotidan so'ng olti jildlik asarlari nashr etiladi. Mustaqillik yillarida marhum Maqsud Shayxzoda ijodi va qilgan xizmatlari haqiqiy qadr topdi.

XULOSA. Shuni aytish mumkinki Maqsud Shayxzoda Ozbarbayjon va O'zbek xalq adabiyotining eng zabardast shoир va adiblaridan hisoblanadi. Mana necha yildirki ijodiy asarlari so`ngan emas va qalbimizning tub tubidan joy olgan. birinchi prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan Maqsud Shayxzoda nomiga medal, order, va stipendiyalar joriy etilgan. Uning asarlari va hayotiga qiziquvchi yoshlarmiz juda ko'p va bundan keyin ham kamaymaydi. Maqsud Shayxzodaning ijodi shu qadar qiziqki u faqat bir yo'nalishda emas balki turli xil yo'nalishlarda juda qiziq faoliyat ko'rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.
2. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoир, T., 1972 y. - 179 b.
3. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
4. XX- asr o'zbek adabiyoti tarixi, T., 1999 y. – 25 b.
5. G'afurov I., O'rtoq shoир. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y. - 215 b
6. Shayxzoda Maksud. Shoир qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008. - 28b

ОИЛАВИЙ (МАИШИЙ) ЗЎРАВОНЛИК ЖИНОЯТЛАРИНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Самандаров Валижон Равшанович

**Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси Магистратураси
ТИНГЛОВЧИСИ**

Аннотация. Мазкур мақола хотин-қизлар ва болаларга нисбатан шилқимлик ҳамда зўравонликнинг олдини олишга, оиласардаги маънавий-ахлоқий мухитни яхшилаш, шунингдек суд-тергов амалиётида оиласавий (маиший) зўравонлик жиноятларини тергов қилишда учрайдиган муаммолар, уларнинг таҳлили ҳамда мазкур муаммоларни бартараф этиш юзасидан таклиф ва тавсияларга бағишиланган.

Калит сўзлар: хотини (эр), сабиқ хотин (сабиқ эр), бир рӯзғор асосида биргаликда яшаётган шахс, умумий фарзандга эга бўлган шахс, қасдан шикаст етказиш, шаъни ва қадр-қимматини, таҳқирлаш, кўрқитиш, ажратиб қўйиш.

КИРИШ. Дунёда барқарорлик, тинчлик ва осойишталикни қарор топтириш аҳоли фаровонлигини юксалтириш, юзага келаётган хавф-хатар ва таҳдидлар, аввало, нафақат юртимизда балки бутун дунёда оиласавий (маиший) зўравонлик билан боғлиқ жиноятларнинг ортиб бориши, жамиятнинг ижтимоий-иктисодий ва маданий негизига салбий таъсир кўрсатади. Юртимизда соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, жамиятнинг жисмоний, маънавий ва маданий жиҳатдан юксалтириш мақсадида йирик ижтимоий дастурлар тузилиб, амалга оширилмоқда. Инсон ҳаётини ва соғлиқни сақлаш-бу ижтимоий вазифалардан бири ҳисобланади[1].

Оиласавий маиший зўравонлик - бу оила аъзолари томонидан бир шахсга иқтисодий, руҳий, жисмоний ёки жинсий зўравонликни амалга ошириш ёки амалга ошириш билан таҳдид қилиш тушунилади. **Victim blaming** (инглизчадан) эса зўравонлик қурбонини айлаш, яъни зўравонлик содир этилганда айби борлигини айтиш, психологик босим ўтказишидир. **Shaming** - бу уялтириш. Марказий Осиё давлатларида уялтириш маданияти жуда кучли. Агар қиз бола ёки аёл киши жинсий ёки жисмоний зўравонлик қурбони бўлса, уни уялтириш ҳолатлари ҳам бўлади. Оиладаги зўравонликка чидашни хоҳламаса ҳам уялтирилади. Марказий Осиё, хусусан, Ўзбекистонда зўравонлик "маданияти" шаклланиб улгурган. Оилада содир бўладиган ҳар қандай зўравонликка уй ичидағи муаммо, оиласавий масала сифатида қаралади. Нафақат жамият, қўшнилар ёки қариндошлар, балки маҳалла, ҳуқуқ-тартибот органлари ҳам зўравонликни оиласавий масала сифатида кўришади. "Хотин-қизларга нисбатан тазиик ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида"ти Қонун бор. Унда зўравонликнинг 4 та тури: жисмоний, жинсий, руҳий ва иқтисодий зўравонлик келтирилган. Лекин оиласавий-маиший зўравонлик деган тушунча берилмаган. Афсуски, жисмоний зўравонликка учраган шахсларда жавобгарлик масаласи ҳам "оиласавий зўравонлик" тушунчаси йўқлиги, жавобгарлик белгиланмаганилиги туфайли Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодексда таҳқирлаш, тухмат қилиш ёки енгил тан жароҳати етказиш моддаси билан квалификация қилиниб, зўравон жарима тўлаш билан чекланади ёки ҳимоя ордери билан аёлидан 30 кунга узоклаштирилади. Зўравонликни амалга ошираётган шахс ўзининг жавобгарликка тортилмаслигини билади. Жамият ҳам зўравонлик қилаётган шахсни оқлашга харакат қиласиди. Бундай ҳолатда аёл киши зўравонлик ҳақида хабар бермаслиги ёки унинг атрофидагилари, оила аъзолари томонидан

чидаш керак, турмушнинг мушти бўлади, фарзандларинг учун чидагин, қабилида иш тутилади[2].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР. Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг самараси ўлароқ бу турдаги жиноятларнинг камайишига эришилаётган бўлса-да, бироқ оилавий (маиший) зўравонликга қарши курашишда янада самарали ҳаракатларни амалга оширишимиз лозим. Айниқса, шу турдаги жиноятларни содир этган шахсларни жиноий жавобгарликка тортиш орқали жазо мукаррарлигини таъминлаш ўта муҳим вазифа саналади. Бу борада мамлакатимизда оилавий (маиший) зўравонликга оид жиноят ишларини кўришда қонунлар тўғри ва бир хилда қўлланилишини таъминлаш, мазкур тоифа ишлар бўйича одил судлов сифатини ошириш мақсадида 2023 йил 11 апрель куни Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизлар ва болалар ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш тизими янада такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айrim қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 829-сон қонуни қабул қилинган бўлиб, ушбу қонун билан Ўзбекистон Республикаси қонунларига хотин-қизларни ижтимоий-иктисодий соҳада ўз ҳуқуқлари ва манфаатларини амалга оширишида қўллаб-қувватлаш масалаларини тартибга солувчи қонунчиликни халқаро стандартлар асосида такомиллаштиришни назарда тутувчи, шунингдек болалар масалалари бўйича комиссиялар фаолиятининг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаб қўювчи ўзгартишлар киритилган.

Бунга кўра, Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси 592-модда “Оилавий (маиший) зўравонлик” билан тўлдирилиб, ушбу модда билан “хотинига (эрига), собиқ хотинига (собиқ эрига), бир рўзғор асосида биргаликда яшаётган шахсга ёки умумий фарзандга эга бўлган шахсга нисбатан содир этилган мулқ, таълим олиш, соғлиқни сақлаш ва (ёки) меҳнатга оид ҳуқуқни амалга оширишга тўсқинлик қилиш, мол-мулкига ва шахсий ашёларига қасдан шикаст етказиш, худди шунингдек ушбу шахслар соғлиғининг ёмонлашувига олиб келган тарзда уларнинг шаъни ва қадр-қимматини таҳқирлаш, уларни, кўрқитиш, яқин қариндошларидан ажратиб қўйиш” ҳамда “хотинини (эрини), собиқ хотинини (собиқ эрини), бир рўзғор асосида биргаликда яшаётган шахсни ёки умумий фарзандга эга бўлган шахсни дўпослаш, ушбу шахсларга соғлиқнинг қисқа муддатга ёмонлашувига ёки меҳнат қобилиятидининг унча узоқ бўлмаган муддатга йўқолишига олиб келмаган қасдан баданга енгил шикаст етказиш” учун маъмурий жавобгарлик белгиланган[3,4,5]. Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси 1261-модда “Оилавий (маиший) зўравонлик” билан тўлдирилиб, унга кўра, худди шу ҳаракатлар учун маъмурий жазо қўлланилганидан кейин хотинига (эрига), собиқ хотинига (собиқ эрига), бир рўзғор асосида биргаликда яшаётган шахсга ёки умумий фарзандга эга бўлган шахсга нисбатан содир этилган мулқ, таълим олиш, соғлиқни сақлаш ва (ёки) меҳнатга оид ҳуқуқини амалга оширишга тўсқинлик қилиш, мол-мулкига ва шахсий ашёларига қасдан шикаст етказиш, худди шунингдек ушбу шахслар соғлиғининг ёмонлашувига олиб келган тарзда уларнинг шаъни ва қадр-қимматини таҳқирлаш, уларни кўрқитиш, яқин қариндошларидан ажратиб қўйиш; худди шу ҳаракатлар учун маъмурий жазо қўлланилганидан кейин хотинини (эрини), собиқ хотинини (собиқ эрини), бир рўзғор асосида биргаликда яшаётган шахсни ёки умумий фарзандга эга бўлган шахсни

дўйпослаш, ушбу шахсларга соғлиқнинг қисқа муддат ёмонлашувиға ёки меҳнат қобилиятиниңг унча узоқ бўлмаган муддатга йўқолишига олиб келмаган қасдан баданга енгил шикаст етказиш; Хотинига (эрига), собиқ хотинига (собиқ эрига), бир рўзғор асосида биргаликда яшаётган шахсга ёки умумий фарзандга эга бўлган шахсга соғлиқнинг қисқа вақт, яъни олти кундан ортиқ, аммо йигирма бир кундан кўп бўлмаган муддатга ёмонлашувиға ёки умумий меҳнат қобилиятиниңг унча узоқ бўлмаган муддатга йўқолишига сабаб бўлган қасдан баданга енгил шикаст етказиш; Хотинига (эрига), собиқ хотинига (собиқ эрига), бир рўзғор асосида биргаликда яшаётган шахсга ёки умумий фарзандга эга бўлган шахсга содир этилаётган пайтда ҳаёт учун хавфли бўлмаган ва ушбу модданинг олтинчи қисмида назарда тутилган оқибатларга олиб келмаган, лекин соғлиқнинг узоқ вақт, яъни камида йигирма бир кун, аммо тўрт ойдан кўп бўлмаган даврда ёмонлашувиға ёки умумий меҳнат қобилиятиниңг ўн фоизидан ўттиз уч фоизигача йўқолишига сабаб бўлган қасдан баданга ўртacha оғир шикаст етказиш; Ушбу ҳаракатларни а) икки ёки ундан ортиқ шахсга нисбатан; б) ҳомиладорлиги айбордга аён бўлган аёлга нисбатан; в) ўта шафқатсизлик билан; г) ғаразли ниятларда; д) диний таассублар замарида; е) бир гуруҳ шахслар томонидан; ж) такроран, хавфли рецидивист томонидан ёки илгари Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодекснинг 97, 104 ва (ёки) 105-моддаларида назарда тутилган жиноятларни содир этган шахс томонидан; з) ўта хавфли рецидивист томонидан; и) қуролни ёки совук қурол сифатида фойдаланилиши мумкин бўлган ашёларни ишлатиб содир этиш; Хотинига (эрига), собиқ хотинига (собиқ эрига), бир рўзғор асосида биргаликда яшаётган шахсга ёки умумий фарзандга эга бўлган шахсга содир этилаётган пайтда ҳаёт учун хавфли бўлган қасдан баданга оғир шикаст етказиш натижасида кўриш, сўзлаш, эшитиш қобилиятини йўқотишига ёхуд бирон аъзонинг ишдан чиқишига ёки унинг функциялари тамоман йўқолишига, руҳий ҳолатнинг бузилишига ёки соғлиқнинг бошқача тарзда ёмонлашувиға, умумий меҳнат қобилиятиниңг ўттиз уч фоизидан кам бўлмаган қисмининг йўқолишига ёки ҳомиланинг тушишига ёхуд баданнинг тузалмайдиган даражада хунуклашишига сабаб бўлиш; Ушбу ҳаракатларни а) ҳомиладорлиги айбордга аён бўлган аёлга нисбатан; б) вояга етмаган шахсга нисбатан; в) ўта шафқатсизлик билан; г) ғаразли ниятларда; д) диний таассублар замарида; е) бир гуруҳ шахслар томонидан; ж) қуролни ёки совук қурол сифатида фойдаланилиши мумкин бўлган ашёларни ишлатиб содир этиш; Юқоридаги ҳаракатларни а) икки ёки ундан ортиқ шахсга нисбатан; б) такроран, хавфли рецидивист томонидан ёки илгари Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодекснинг 97 ва (ёки) 104-моддаларида назарда тутилган жиноятларни содир этган шахс томонидан; в) ўта хавфли рецидивист томонидан содир этилган бўлса; г) жабрланувчининг ўлимига сабаб бўлиш учун жиноий жавобгарлик белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодекси 1261-моддаси 2-қисми диспозициясини хотинини (эрини), собиқ хотинини (собиқ эрини), бир рўзғор асосида биргаликда яшаётган шахсни ёки умумий фарзандга эга бўлган шахсни дўйпослаш, ушбу шахсларга соғлиқнинг қисқа муддат ёмонлашувиға ёки меҳнат қобилиятиниңг унча узоқ бўлмаган муддатга йўқолишига олиб келмаган қасдан баданга енгил шикаст етказиш ўша ҳаракатлар учун маъмурий жазо қўлланилганидан кейин ёки муқаддам Ўзбекистон Республикаси маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодекси 474-моддаси (Вояга етмаган ёки меҳнатга

лаёқатсиз шахсларни моддий таъминлашдан бўйин товлаш) ҳамда 475-модда (Ота-онани моддий таъминлашдан бўйин товлаш) билан жавобгарликка тортилган шахс томонидан содир этилган бўлса сўзлари билан тўлдирилиши таклиф этилади.

Бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодекси 661-моддаси (Ярашилганлиги муносабати билан жиноий жавобгарликдан озод қилиш) 1-қисми матнини ушбу Кодекс 1261-моддасининг бешинчи қисми билан тўлдирилиши таклиф этилади. Ушбу ўзгартиш жиноят оқибатида оилаларнинг бузилишини олдини олиш ва келгусида уларнинг тинч ва тотув ҳаёт кечиришлари учун асос бўлиши мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/oilaviy-maishiy-z-ravonlikdan-iborat-zhinoyatlarni-kvalifikatsiya-ilishning-mu-im-zhi-atlari/viewer>
2. <https://kun.uz/35378543>
3. “Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизлар ва болалар хукуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш тизими янада такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 2023 йил 11 апрель кунидаги 829-сон қонуни.
4. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси.
5. Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси.

QIDIRUV QAZILMALARI USTUNLARI BO‘YICHA GEOLOGIK KESIMLAR

Karimova Anora Baxtiyerovna, assistent
Ismatullayev Abduraim Ulfat o‘g‘li, talaba

(Toshkent davlat transport universiteti)

Annotatsiya: Yerlarni sug‘orish, zaxini qochirish va suv bilan ta’minlash loyihalarini tuzish uchun yerlarning geologik tuzilishi, gidrogeologik va injenergeologik sharoiti to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lish lozim.

Kalit so‘zlar: gil, argilit, qumtosh, oxaktosh, dolomit, uzilma va darzliklar, burg‘ulash quduqlari.


Kirish. Xarita va planda tasvirlangan har xil turdag'i qatlama va foydali qazilma uyumlarining tarqalish qonuniyatlarini, yotish shakllarini, o‘zaro munosabatlarini, joylaming rel’efni to‘liq ifodalash maqsadida geologik kesim tuzatilishini kuzatish mumkin.

Asosiy qism: Geologik kesim, geologik profil — joyning geologik tuzilishining vertikal tekislikdagi grafik tasviri hisoblanadi. Bunday kesim tog‘ jinslarining yo‘nalishiga ko‘ndalang qilib, ayrim hollarda esa biror burchak ostida tuziladi. Geologik kesim geologik xaritalarni to‘ldiradi va uni aniqlashtiradi [1]. Yer yuzasida olib borilgan geologik kuzatishlar, burg‘ilashdan olingan ma’lumotlar va turli geofizik usullarning natijalaridan Geologik kesim tuzishda foydalaniladi [2]. Geologik kesimda tog‘ jinslarining o‘zaro munosabati, yoshi, qatlamlarning qalinligi, fatsiyalarning bir-biriga o‘tishi tasvirlanadi. Shuningdek, geologik kesim tuzishga birinchi navbatda foydali qazilma uyumlarining chegarasiga, yotish elementlariga, morfologik shakllariga, tarqalish qonuniyatlariga, yondosh tog‘ jinslari bilan munosabatlariga alohida e’tibor beriladi. Geologik kesim tuzish uchun xarita va planning eng baland va eng past nuqtalarini o‘z ichiga oladigan ma’dan tuzilishi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot beradigan yo‘nalishlar belgilanadi. Odatda kesimlar asosiy strukturalar va ma’dan uyumlari yo‘nalishiga ko‘ndalang qilib, ayrim hollarda esa biror burchak asosida tuziladi. Geologik kesimga joyning relyefi va geologik tuzilishini ko‘rsatuvchi geologik xarita, topografik profil va marksheyderlik planlari asos qilib olinadi. Muxandislik geologik kesim antropogen jinslarning qalin g‘ilofi bilan qoplangan rayonnlar uchun juda muhim. Geologik kesim turli masshtabda: 1:1000000 (regional kesim)dan 1:1000 — 1:50 (mufassal kesim)gacha bo‘ladi. Geologik kesimning vertikal va gorizontal masshtabi bir xildir [3]. Muhandislik geologiya va suv omborlari qurishda ishlataladigan geologik kesimning vertikal masshtabi gorizontal masshtabga nisbatan 10 va hatto 100 baravar katta bo‘lishi mumkin. Muhandis-geologik kesimlar xaritalarning asosiy to‘ldiruvchilaridir [4]. Ular chuqurlikdagi maydonning muhandis-geologik sharoitlarini aniqlash imkonini beradi. Ular parmalangan quduqlardan va shurflardan olingan ma’lumotlar bo‘yicha quriladi. Izlanish maqsadiga bog‘liq holda tarh tuzishda loyihalanayotgan inshootlar, ko‘prik kechuvlari, yo‘l trassalarning o‘qlari yo‘llanma sifatida xizmat qilishi mumkin. Kesim tuzish uchun zaruriyatlar: - topografik asos kesim yo‘nalishi bo‘ylab topografik bo‘ylama profil yoki gorizontallariga qidiruv qazilmalari tushirilgan topografik xarita - qidiruv qazilmalari yoki shurflar – parmalangan quduqlarning grafik ustunlari bo‘yicha geologik tuzilishi ta’riflangan jurnallar - grumlarning laboratoriya tekshiruvlari natijalaridir [5-7]. Kesimlarning masshtablari ko‘p hollarda xaritaning masshtabiga mos kelishi kerak. Ko‘proq yaqqollikka ega bo‘lish zarurati tug‘ilganda xarita

masshtabiga nisbatdan kesim masshtabini yoki kesimning gorizontal masshtabiga nisbatdan vertikal masshtabni 1-rasmda orttirish mumkin [8].

1-rasm

Qidiruv qazilmalari ustunlari bo'yicha geologik kesim tuzish



Loyihalanayotgan temir yo'l o'qi bo'ylab geologik kesim tuzishda qidiruv-tadqiqot ishlarining tarkibi [9-10] va vazifalari quyidagilardan iborat:

- qidiruv-tadqiqot ishlari olib borilgan hududning geologik, gidrogeologik, injener-geologik ishlar ma'lumotlarini yig'ish, tahlil qilish, o'rGANISH va tartibga keltirish;
- dala ishlari maydonining geologik tuzilishini, tog' jinslarining tarkibi va xususiyatlarini o'rGANISH;
- hududning tektonik va geomorfologik sharoitini o'rGANISH;
- sizot suvlarining kimyoviy tarkibini va tog' jinslarining sho'ranganligini o'rGANISH [11-12].



Xulosa: So‘z yakunida, ko‘p asrlar davomida odamlar turli xil tabiiy jarayonlarni kuzatganlari bois, ularning xususiyatlari, sabablari va oqibatlarini payqaydilar; e’tibor bering, ba’zi jarayonlar tez-tez va katta kuch bilan sodir bo‘ladi va bir joyda ular juda kamdan-kam kuzatilishi mumkin. Tabiiy jarayonlar bir-biri bilan bog‘liqligini, ular sayyoramizni doimiy va doimiy ravishda o‘zgartirishini va boshqalarga e’tibor bermasdan turib, hech narsani o‘rganish mumkin emasligini sezmaslik qiyin. Tabiiy resurslar va hodisalar esa ushbu jarayonlar atrofimizdagi muhitga ijobjiy ta’sir qiladimi yoki yo‘qligini aniqlab bo‘lmaydi. Butun dunyo olimlari halokat va o‘limga olib keladigan ofatlarning oldini olish, insoniyat uchun qulayroq bo‘lgan jarayonlarni targ‘ib qilish maqsadida tabiat qonuniyatlarini, undagi jarayonlar, hodisalar, ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganmoqda. Tabiat yashaydigan qonunlarni o‘rganish, inson u bilan muloqot qilishni o‘rganishini anglatadi. Bu ishlar bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligi uchun yaroqli bo‘lgan yerlarni o‘zlashtirish va melioratsiyalash masalalarini kompleks hal etish, suv xo‘jaligi qurilishining texnikaviy darajasini va sifatini yuqori darajaga ko‘tarish, sug’oriladigan va zaxi qochiriladigan har bir gektar yerdan yuqori hosil olishga erishish, suv-yer resurslaridan oqilonqa foydalanish kabi bir qancha masalalarini hal etish ko‘rsatilgan. Shu maqsadda hozirgi davrda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda geologiya, gidrogeologiya, ekologiya, hidrologiya, tuproqshunoslik kabi tabiiy fanlar muhim o‘rin tutadi. Foydali qazilma konlarini ochish va istiqbolini aniqlash uchun bajariladigan geologik, geokimyoviy va geofizik tadqiqotlar. geologik syomka bilan birga o‘tkazilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.Z. Nazarov Injenerlik geologiyasi. T.: O‘qituvchi, 1980. -177 b.
2. Karimova A.B., Sheraliyeva X. YMTY-11 guruh talabasi Qumli gruntning fizikaviy ko‘rsatkichlarini tavsiflash orqali hisobiy qarshiligini aniqlash // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 Issue 12 December, 2022, 04.Октябрь, 2022,. – p.477-482.
3. Karimova A.B., Barotov A. YMK-3 guruh talabasi Gruntlarning fizik - mexanik xossalari aniqlash // Procedia of Theoretical and Applied Sciences (Portugal) «International Symposium of Life Safety and Security» 04.Октябрь, 2022,. – p.1-5.
4. Karimova A.B., Barotov A. (2023/3/6). Impact of Earthquakes on Artificial Structures. Miasto Przyszlosci, 33, p. 48-52.
5. KA Baxtiyerovna, BA Ixtiyor o‘g‘li. Qoziqli poydevor turlari va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects, 165-168.
6. Baxtiyerovna, K.A., & Ixtiyor o‘g‘li, B.A. Temirbeton ko‘priklarda hidroizolyasiyaning ahamiyati. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 4, pp. 536-541)
7. АБ Каримова, ЖТ ўғли Озоджонов Шахар ра транспортаси инфраструктурасида уровенаша балан кадан баруй замонда земонда алиш намешудаги манолит куприко ра

мегузарондаги проект и сохтана худашба мос хосиятош // Educational Research in Universal Sciences 2 (4), 188-193.

8. Шермухамедов У.З., Каримова А.Б. Современные подходы проектирования и строительства мостов и путепроводов в Республике Узбекистан // "Science and innovation" international scientific journal. Volume 1 Issue 8, UIF-2022: 8.2. ISSN: 2181-3337. – p. 647-656.

9. Shermukhamedov, U. Z., Karimova, A. B., Khakimova, Y. T., & Abdusattorov, A. A. (2022). Construction technology of new types of continuous reinforced concrete (monolithic) bridges and overpasses. *Scientific Impulse*, 1(4), 1023-1032.

10. Shermuxamedov U.Z, Karimova A.B., Hakimova Ya.T. Real seysmogramma yozuvlari ta'sirida uzlucksiz monolit ko'prik konstruksiyalarining dinamik tahlili. Международный научный журнал «Научный импульс», №3 (100), часть 1, Октябрь, 2022. – с. 291-296.

11. Karimova, A. (2022). feasibility study of reinforced concrete bridges and overpasses in the conditions of the republic of Uzbekistan with different static schemes.

12. Karimova, A. (2022). justification of the efficiency of continuous (monolithic) bridges and overpasses in the conditions of the republic of Uzbekistan.

АМИР ТЕМУР ДАВРИ МАДАНИЯТИ ВА УНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

САЪДУЛЛАЕВА ШАҲРАБО

Андижон давлат университети 3-босқич талабаси

Shahrabosadullayeva5@gmail.com

АННОТАЦИЯ. Юксак маънавиятли инсонларгина умумхалқ манфаатларни кўзлаб давлат, жамият аҳамиятига молик йирик тадбирларни амалга оширишга қодир бўладилар. Миллий давлатчиликимиз ривожига катта ҳисса кўшган, ўз даврида буюк давлатга асос солган сиймолардан бири Амир Темур хам ана шундай шарқона, исломий ақл-заковатли, маънавиятли инсон бўлган.

Калит сўзлар: Амир Темур, маънавият, буюк давлат, ақл-заковат, тарих илм-фан, маданият.

АННОТАЦИЯ. Только энергичные люди смогут проводить масштабные мероприятия национального и общественного значения в интересах общества. Амир Темур, один из деятелей, внесших большой вклад в развитие нашей национальной государственности и основавший в свое время великое государство, был таким восточным, исламским интеллектуальным и духовным человеком.

Ключевые слова: Амир Темур, духовность, великое государство, разум, история, наука, культура.

ABSTRACT. Only energetic people will be able to carry out large-scale events of national and public importance in the interests of society. Amir Temur, one of the figures who made a great contribution to the development of our national statehood and founded a great state in his time, was such an oriental, Islamic intellectual and spiritual person.

Keywords: Amir Temur, spirituality, great state, mind, history, science, culture.

КИРИШ. Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъбири билан айтганда: "... ҳалқ армонини рўёбга чиқаришга бўлган интилиш Амир Темур ибн Тарагай Баҳодир даврида нафақат мамлакат мустақиллигини таъминлаш, балки қудратли давлат барпо етиш, маданият, санъат ва илм фан соҳаларини ривожлантиришга хизмат қилди" [1]. Мустақиллик йилларида юртимизда тарихни ёзма манбалар асосида тадқиқ этишга эътибор кучайди, аждодларимиз томонидан узоқ ўтмишда яратилган маданий-маънавий меросни ўрганиш ва тарғиб қилиш долзарб масалалар қаторига қўйилди. Илм-фан, маданият ривожига улкан ҳисса кўшган аждодларимизнинг унutilган номлари қайта тикланди. Моҳир саркарда, давлат арбоби, илм-фан, маданият ҳомийси бўлган Амир Темур ана шундай тарихий шахслардан биридир. Ҳазрат соҳибқирон марказлашган давлатга асос солди, уни ҳар томонлама мустаҳкамлаб, ривожлантириб, шон-шуҳратини бутун жаҳонга ёйди, буюк салтанатнинг ҳукмдори сифатида миллатлар ва ҳалқларни бирлаштириди. Унинг ҳукмдорлик йилларида маданият, илм-фан, меъморчилик, тасвирий санъат, мусиқа ва шеърият юксак чўққига кўтарилиди. Бир сўз билан айтганда, темурийлар даври ренесансига асос солинди.

Соҳибқирон Амир Темур ҳазратлари – миллатимизнинг суюнган тоғларидан бири, ҳалқимизнинг абадий фахри ва ғуруридир. Ул зот Туронзамиинни мӯғуллар истилоси асоратидан озод этди, мамлакат ва ҳалқ даҳлсизлигини, тинчлигини ва осойишталигини, ободлик ва фаровонликда ривожланишини тўлиқ ва ишончли кафолатлай оладиган марказлашган қудратли давлатни вужудга келтирди, унинг амру иродаси остида бу ерда

ҳаёт ҳар тарафлама гуллаб-яшнади. Туронзамин Амир Темур даврида Буюк Ипак йўлининг қайнок, гавжум, файзли-баракали гўшалардан бирига айланди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР. Инсоният тарихида жаҳонгирилик даъвоси билан тарих саҳнасига чиққан фотиҳлар орасида Амир Темур ўзининг илм-фанга, маданият ва санъатга, меъморчилик ва бунёдкорлик ишларига қўшган ҳиссалари билан ажралиб туради. Тарихчиларнинг маълумотига қўра, Амир Темур ўз мамлакатига Марказий Осиёдан ҳамда ҳарбий юришлар натижасида қўлга киритилган давлатларнинг жуда кўп олимларини жам қилган. Улардан Амир Темур ва темурийлар даврида яшаган муаррихлар Шарафиддин Али Яздий, Низомиддин Шомий, Мирхонд, Ибн Арабшоҳ, Муиниддин Натаний ва бошқа қатор муаллифларнинг аксарияти ўша даврда яшаганликлари учун бўлиб ўтган воқеа ва ҳодисаларни унинг бевосита ҳамда билvosита шоҳидлари сифатида жонли ва ишончли тарзда баён қилинган.XV – асрда яшаган таникли араб тарихнавислари, жумладан: Ибн Холдун, Ибн Дуқмоқ, Ас-Суютий, Ал-Қалқашандий, Ас-Саҳовий, Баҳриддин ал-Айний, Ибн-Ийос, Ибн Тағриберди, Ибн Ҳажар ал-Асқалоний, ал-Мақризий ва бошқалар ўз тарихий асарларида Амир Темурга, айниқса унинг шахсига, Ироқ, Шомга қилган ҳарбий юришлари, дипломатик алоқалар ҳақида кўпдан-кўп қимматли маълумотларни келтирилган.

Темурийлар даври томоша санъатлари, байрамлари тўғрисида маълумотлар ва умумлашмалар кўплаб сақланиб қолган. Шу маънода Зайниддин Восифийнинг “Бадоеъ ул-вақое”, Хондамирнинг “Макорим ул-аҳлоқ”, Захириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома”, Ҳасанхўжа Нисорийнинг “Музаккири аҳбоб” каби асарлари қимматлидир. Айниқса, анъанавий театр, рақс ва цирк бўйича маълумотлар умумлашма фикрлар ва мўъжаз тадқиқотлар Алишер Навоийнинг бутун ижоди бўйлаб сочилган. Шунингдек, Абу Наср Фаробий, Абу Абдуллоҳ Хоразмий, Абу Али ибн Сино, Абдураҳмон Жомий, Дарвеш Али Чангий ва бошқаларнинг мусиқа саънатига оид рисолаларда ракс ритми ва усуслари ҳақида маълумотлар, илмий мушоҳадалар учрайди. Ҳозирча, биргина Ҳусайн Воиз Кошифийнинг “Футувватномаи сultonий ёхуд жавонмардлик тариқати” рисоласида ўйин ва томошаларнинг айрим тоифалари хусусида фикр юритилади. Шунингдек, ўтмишда анъанавий театр, қўғирчоқбозлик, рақс, ҳалқ цирки, қўшиқчиликнинг барча шакллари, турлари “Томоша” деган биргина истилоҳ билан ифодаланган. Асли арабча бу сўз “Қараш, кўздан кечириш” деган маъноларни англатади. Аммо Марказий Осиё минтақасида унинг маъно доираси жуда кенг бўлиб, кўпчиликка мўлжалланган ҳамда кўрувчи ва тингловчини қувонтирадиган ёки қайғуртирадиган, баъзан ҳатто жумбушга соладиган ижролар, майдон маъракалари, маросимлар билан боғлиқ намойишлар ва ўйинлар – барчаси “Томоша” деб юритилган. Туркийчада “Ўйин” атамаси ҳам ишлатилган. Бироқ унинг қўллаш доираси ҳаддан ташқари жуда кенг бўлиб, эрмак машғулотлар, бадантарбия ва спортга алоқадор соҳаларни ҳам ўз ичига олган[2.3].

Шарофиддин Али Яздий “Зафарнома” муқаддимасида Чингизхон билан Амир Темур ўртасидадаги фарққа тўхталиб шундай ёзади: “Чингизхон қайси шаҳар ва вилоятниким босиб олган бўлса, на ул жойдан асар қолди-ю, на улусидан хабар.... Ҳазрат соҳибқироннинг баҳтиёр замонида фатҳ этилган жойларда эса, низочилар ва душманларнинг ихтиёридан бутунлай чиқди ва ахволи олдингидан ҳам анча яхшироқ

ва ободроқ. Халқи эса тинч ва хурсанд бўлди...” Амир Темур ва темурийлар давлатида турли байрамлар, сайиллар, томошалар ўтказилиб келинганилиги тўғрисида кўпгина илмий маълумотлар бор. Маъракаларда ҳар тоифа ижрочилар алоҳида — алоҳида тарафхона ва хосхона санъаткорларнинг аралаш гурухлари ўз маҳоратларини намойиш этишган бўлса, театрлашган сайиллар ва намойишларда минглаб ҳар хил ижрочилар қатнашган ва ўзаро беллашган. Амир Темур Мовароуннаҳрда илгаритдан мавжуд анъаналарни давом эттирган ҳолда, ўзининг ҳар бир ғалабасини байрам, тўй билан нишонлаган. Ҳар бир азиз меҳмонни зиёфат ва базм билан сийлаган. Оилавий маросимларни ҳам созанда, хонанда ва раққосураққоссаларсиз, умуман олганда ўйинчиларнинг катта-катта гурухларини жалб этган ҳолда ўтказишни ёқтирган. Унинг даврида ҳалқ байрамлари жуда ҳам кенг кўламда нишонланганлигини тарихий манбалардан топишимиз мумкин.

Хос базмларда мақом куйлари чалинганд. Бу куйларга раққос ва раққосалар хиром этган, масхара ва муқаллидлар кулдирган, байрамларда катта майдон ва маъракаларга яраша томошалар кўрсатилган. Майдон томошалари орасида от билан бажариладиган пойга, улоқ чопиш (Кўпкари), отдан ағдариш, чавгон, қабоқ ўйин кабилар, ҳаққоний куч синови ҳисобланмиш кураш (Гуштирлик), қилич, найза, гурзи ва бошқа жанговар қурол ва аслаҳалар билан ўтадиган беллашувлар, шунингдек, кўчкор, хўрз уриштириш каби қадимий ўйин ва мусобақалар етакчилик қилган[4].

ХУЛОСА. Амир Темур маънавиятининг шаклланишида ислом дини асослари алоҳида ўрин тутади. Бу даврда исломнинг ривожланиши, шариат қонун-қоидаларининг қарор топиши учун катта имкониятлар яратилган. Дин пешволари ва уламоларнинг йўл-йўриклири, маслаҳатларига амал қилинганд ҳолда давлатни идора қилиш ишлари амалга оширилган. Бу ҳақда у шундай ёзади: "Ҳар ерда ва ҳар вақт Ислом динини қувватладим. Яна тажрибамда кўриб билдимки, давлат агар дини иймон асосида қурилмас екан ундай салтанатнинг шукухи, қудрати ва тартиби йўқолади" [5]. У қаерга юриш қилган бўлса, ислом байроғини баланд кўтарган. Ёлғон гапирган, алдоқчи кишилардан узоқроқда бўлишга интилгани унингент яхши фазилати бўлган. У шундай деган еди: "Мен бир қўлимда адолат шамини, иккинчи қўлимда ҳақиқат шамини ушладим. Шу икки шам билан ўзимни ҳаёт йўлимни белгиладим". Бугунги кунда Янги Ўзбекистоннинг Учинчи Ренессанс негизлари яратилаётган бир даврда тарихий меросга, ўзликни англашга янгича муносабат шакллантирилаётган, жамиятимиз маънавий ҳаётида покланиш юз бераётган бир шароитда Амир Темур даврида яратилган маънавият муҳим аҳамият касб етади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. - T.: “O’zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 bet.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/amir-temur-va-temuriylar-davri-adabiy-muhit-vasviriy-san-atning-ba-zi-jihatlari-tarixiy-manbalarda>
3. <https://abiturtest.uz/mavzular/amir-temuring-maanaviyat-marifat-va-talim-tarbiya-haqidagi-talimoti-asoslari/>
4. <https://shosh.uz/uz/amir-temur-va-temuriylar-davrida-san-at-va-madaniyat/>
5. Temur tuzuklari.- T.: G’ofur G’ulom nashriyoti. 1991.

YANGI UYG'ONISH DAVRINING TAMAL TOSHI

IKROMOVA MADINA

O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifikat kengashining kengaytirilgan yig'ilishda madaniyat va san'at hamda ma'naviy-ma'rifiy sohalar bo'yicha ilgari surilgan tashabbuslar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Sektor, "Bahor" raqs ansamblı, filormoniya, "Orol madaniyati", "Buyuk ipak yo'li" muzeyi, Amir Temur

Аннотация. В данной статье проанализированы инициативы, выдвинутые в сфере культуры и искусства и духовно-просветительской сфере на расширенном заседании Республиканского совета духовности и просвещения 22 декабря 2023 года под председательством Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева.

Ключевые слова. Сектор, танцевальный ансамбль «Бахор», филармония, «Островная культура», музей «Великий шелковый путь», Амир Темур.

Abstract. This article analyzes the initiatives put forward in the field of culture and art and the spiritual and educational sphere at an expanded meeting of the Republican Council of Spirituality and Education on December 22, 2023, chaired by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev.

Keywords. Sector, dance ensemble "Bakhor", Philharmonic, "Island Culture", Museum "Great Silk Road", Amir Temur

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifikat kengashining kengaytirilgan bo'lib o'tdi. Unda ma'naviyat va madaniyat faollari, adabiyot va san'at namoyandalari, shuningdek, Oliy Majlis palatalari, Vazirlar Mahkamasi vakillari, vazirlar va hokimlar ishtirok etdi. Davlat rahbari jahon miqyosida taraqqiyot sur'atlari shiddatli tus olgani, o'ta ziddiyatli jarayonlarning ta'siri mamlakatimizda ham sezilayotganini qayd etdi. "Tarixdan ma'lum, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilar – uyg'oq qalbli ziyorolar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifikat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur"³, deb ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz ushbu masalalarga bag'ishlangan 9 ta yo'nalishdagi vazifalarni ilgari surdi. Jumladan, Avvalo, ma'naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladigan milliy g'oyani rivojlantirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish lozimligi ta'kidlandi. Ba'zi guruuhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi qo'yish, dunyoviy qadriyatlarni harom deb bilish holatlari afsus bilan qayd etildi. Prezident bu o'rinda Ibratning "Ulamo g'ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur", degan hikmatli so'zlarini yodga oldi.

³ <https://president.uz/uz/lists/view/6941>

Ziyolilar, nuroniylar, haj va umraga borib kelgan yurtdoshlarimiz ma'naviyat targ'ibotchisi bo'lishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerakligi aytildi. Ta'lif tizimiga qaratilayotgan e'tibor izchil davom ettiriladi. Bu borada ham tenglik ta'minlanishi, xususan, qiz bolalarning o'qishi va kasb-hunar egallashi jamiyat rivojida muhim ekani alohida ta'kidlandi.

Ikkinchidan, madaniy-ma'rifiy sohadagi ishlarda hokimlarning mas'uliyati oshiriladi. Tuman va shaharlarda Ma'naviyat va ma'rifikat maskanlari ishga tushiriladi. Shu maqsadda, hududlardagi 4 ta sektorga qo'shimcha ravishda ma'naviyat sektori tashkil etilishi ma'lum qilindi. Ular joylardagi Ma'naviyat va ma'rifikat kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Uchinchidan, teatr san'atini rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqiladi. Unda eng yaxshi piyesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo'llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg'ur nomidagi mukofot ta'sis etish kabilar nazarda tutiladi. Korxona va muassasalarda oyning bir kuni «Teatr kuni» deb belgilanib, xodimlarning teatrlarga borishi yo'lga qo'yiladi.

To'rtinchidan, kelgusi yildan har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va to'garak xonalari bo'lgan bittadan madaniyat markazi faoliyati yo'lga qo'yiladi. Joylardagi 600 dan ziyod badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo'yicha dastur qabul qilinib, bunga 100 milliard so'm yo'naltiriladi.

Beshinchidan, maqom va baxshichilik san'atini ilmiy asosda o'rganish va rivojlantirish kuchaytiriladi. Maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas va adres, kulolchilik va zargarlik kabi an'analarni davom ettiradigan maktablar yaratiladi.

Oltinchidan, musiqa va raqs san'ati rivoji qo'llab-quvvatlanadi. Jumladan, "Bahor" raqs ansamblı ilgari Filarmoniya joylashgan mashhur san'at saroyida faoliyat yuritadi. Taniqli ashula va raqs ansambollarining xorijga gastrol safarları ko'paytiriladi. Musiqa va raqs san'ati masalalarını ilmiy o'rganish, sohada ilmiy kadrlarni ko'paytirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar uchun grantlar joriy qilinadi. Shuningdek, Toshkent davlat sirkı binosi ta'mirdan chiqariladi.

Бердақ ижодий меросида ахлоқ, ҳулқ-одоб, нафосат ва гузаллик масалалари мухим уринни эгаллайди. Унинг шеърларида миллий ва умуминсоний қадрятлар, ватанпарварлик, ҳалқлар дустлиги, оддимий ахлоқ қоидалари туғрисида қимматли фикрлар учрайди.

Йигит булсанг арслон каби туғилган,
Хамиша сен хизмат етгил ҳалқ учун.
Йигит булсанг арслон каби туғилган,
Узим демай, ғамхурлик қил ҳалқ учун.

1998-йили Узбекистон ва Қорақалпоғистонда Бердақ таввалудининг 170- йиллиги кенг нишонланди.

Бердақнинг хаёт йули ва ижоди хақида қанча күп сузласақда оз. Шунинг учун ёшларимиз уртасида Бердақнинг ижодини кенг тарғиб қилиш ва асарларини узбек тилига таржима қилиш ва ёш авлодга, ёшларимизга, ҳалқимизга оммага танитишимиш лозим. Машхур адабиёт ва санъат арбоби ҳалқ шоирининг порлоқ хотираси ҳурматига Нукус ва бошқа шахарлар кучаларига, боғ хиёбонларга, кинотеатрларга Бердақнинг номи

берилган.Мамлакатимиздаги нуфузли театрлардан бири Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат мусиқали театри нафакат узимизда балки чет элларда хам машхур.

Адабиёт ҳалқнинг юраги,элнинг маънавиятини курсатади.Бугунги мураккаб замонда одамлар қалбига йул топиш,уларни эзгу мақсадларга илҳомлантиришда адабиётнинг тасирчан кучидан фойдаланиш керак.

Фойдаланган адабиётлар

- 1.Бердақ – Танланган асарлар
- 2.https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/qoraqalpoq_she-riyati/berdaq-1827-1900

**TEMIR YO'L EGRILIKLARIDA O'TISH EGRI CHIZIG'I VA UNI
JOYLASHTIRISH UCHUN ELEMENTLAR UZUNLIGINI ANIQLASH**

Xamidov Maqsudjon Kamolovich

Toshkent davlat transport

universiteti, assistent

maqsudkhamidov0990@gmail.com

Xamidova Latofat Kamolovna

Qashqadaryo viloyati Muborak tumani

kasb-hunar maktabi, o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada temir yo'l egri uchastkalarida tashqi izning ichki izga nisbatan balandligi va o'tish egriligining elementlari egrilikni o'z o'rniiga joylashtirish usuliga bog'liq hisob – kitob ishlari keltirilgan.

Kalit so'zlari: O'tish egriligi, radius, tashqi rels, ichki rels, tangens.

Temir yo'l o'tish egri chiziqlarini o'rnatishdan maqsad – to'g'ri (tekis) uchastkadan R radius egriligiga yoki R₁ radius uchastkasidan R₂ radius egriligiga, bunda egrilikda paydo bo'ladigan qo'shimcha kuchlar (markazdan qochirma, vertikal yuzadagi zarb) to'satdan yuzaga kelmay, balki o'tish egriligi chegarasida bir tekis va uzuksiz o'zgarib o'tishini ta'minlashdan iborat.

O'tish egriligidagi tashqi rels ko'tarmasining, zarurat paydo bo'lganida esa, iz kengayishi (отвод) amalga oshirilishi zarur.

Tashqi rels ko'tarmasi to'g'ri chiziqli (отвод) bo'lganida o'tish egriligi uzunligi quyidagi ifodadan topiladi:

$$l_o \geq \frac{h}{i}, [m] \quad (1)$$

bu yerda: h – har bir yo'l (iz) tashqi relsi ko'tarmasining qiymati. Tashqi rels ko'tarmasi balandligi egrilikning har ikkala izi bir xil vertikal yedirilishini ta'minlash nuqtayi nazaridan formula yordamida aniqlab topiladi.

i – Tashqi rels ko'tarmasi otvodi qiymati:

Egri uchastkada harakatlanuvchi poyezdlar tezligi

V_{max} < 120 km/soat bo'lganida i = 0,001;

$$V=120 - 160 \text{ km/soat bo'lganida, } i = 0,00067$$

So'ng o'tish egriligining aniqlangan egriliginini quyidagi talablarga muvofiq-nomuvofiqligi tekshirib ko'rildi:

a) g'ildirakning ko'tarmaga chiqish tezligini cheklash:

$$l_0 \geq 10hV_{\max}, [\text{m}] \quad (2)$$

bu yerda: V_{\max} – poyezdlarning R radiusli egrilik bo'ylab harakatlanishining maksimal belgilangan tezligi;

b) so'ndirilmagan ko'ndalang tezlanish sur'atining ortib borishini cheklashlar:

$$l_0 \geq 0,33V_{\max}, [\text{m}] \quad (3)$$

d) markazdan qochirma kuchning asta-sekin ortib borishi:

$$l_0 \geq 0,08V_{\max}^3 / R, [\text{m}] \quad (4)$$

e) birinchi o'qning tashqi izga yo'qotishlarini cheklashlar:

$$l_0 \geq 0,032V_{\max}^3 / R, [\text{m}] \quad (5)$$

$l_0 = \dots \text{ m}$ ning beshta ko'rsatkichidan maksimal qiymati qabul qilinadi va 10 m ga bo'linadigan o'zidan katta songa yaxlitlanadi.

O'tish egriligining elementlari egrilikni o'z o'rniga joylashtirish usuliga bog'liq. Amaliyotda ko'pincha o'tish egri chizig'ini aylanma egrisini ichkariga surish (ko'chirish) yo'li bilan joylashtirish usuli qo'llanadi (1 – rasm).

Joyda mavjud tangens ustunchasi – T_o dan (1 – rasm) m o'lcham olinib, o'tish egriligining boshiga (O'EB) ega bo'linadi. O'tish egriligin ordinaralar bo'yicha uning tenglamasiga muvofiq quradilar. Ammo buning uchun dastlab m – egriliqi boshidan tangens ustunchasi – T ga qadar masofani topib, so'ng asosiy aylana siljishi – R ni, φ_o burchakni va egrilikning barcha ordinatarini aniqlaydi.

O'tish egriligining oxirgi qismidagi (O'EB nuqtasi) radioidal spiral qonuniga muvofiq parchalanadigan φ_o gorizontga nisbatan qiyalik burchagi quyidagi formulaga binoan aniqlanadi:

$$\varphi_o^{rad} = \frac{l_0}{2R}, \text{ (radian)} \quad \text{yoki} \quad \varphi_o = \frac{l_0 \cdot 180^\circ}{2R \cdot \pi}, \text{ (gradus)} \quad (6)$$

Bunda o'tish egriliklarini quyidagi holda bo'lib tashlash mumkin:

$$A) \quad 2\varphi_0 \leq \beta \quad (7)$$

shart bajarilishi tekshirib o‘tiladi

bu yerda: $\beta = \dots^0$ mazkur egrilik burilish burchagi.

$$B) \quad l_{ay.eg.\min} \leq R(\beta - 2\varphi_0) \quad (8)$$

bu yerda: $l_{ay.eg.\min}$ – ekipaj uzunligi bilan aniqlanadigan aylana egriliginining ehtimoliy minimal uzunligi ($30 - 40$ m deb qabul qilinadi).

Dastlab o‘tish egriliginining parametri quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$S = I_o R, [m^2] \quad (9)$$

O‘tish egrilagini joylashtirish (taqsimlash) radioidal spiral tenglamasiga binoan amalga oshiriladi:

$$y_i = \frac{l_i^3}{6S}, [m] \quad (10)$$

bu yerda: l_i – o‘tish egriligi bir qismining uzunligi, masalan,

10; 20; 30 m va l_o qiymatiga qadar shakllantirish kerak.

Ana shu tenglamadan foydalanib, hisob – kitoblarni 1 – jadvalga jamlab, o‘tish egriliklari ordinatalarini hisoblab topamiz (10 m interval bilan).


O‘tish egriligi oxiriga qadar ($l_i = l_o$ bo‘lganida), X_o absissa qiymati quyidagi formulaga binoan aniqlanadi:

$$X_o = l_o - \frac{l_o^5}{40S^2}, [m] \quad (11)$$

O‘tish egrilagini ordinatalarini hisoblash

1-jadval

| | | | | | | | | | |
|----------|----|----|----|----|----|----|----|----|------|
| L_i, m | 10 | 20 | 30 | 40 | 50 | 60 | 70 | 80 | |
| Y_i | | | | | | | | | |



1 – rasm O‘tish egri chizig‘ini aylanma egrisini ichkariga surish (ko‘chirish) yo‘li bilan joylashtirish sxemasi.

1 – jadvaldan olingan ma’lumotlarga ko‘ra o‘tish egriligining holati quriladi.

O‘tish egriligi boshlanishidan tangens ustunchasi – T ning yangi holatiga qadar bo‘lgan m masofa quyidagi ifodaga ko‘ra aniqlanadi:

$$m = l_0 - R \sin \varphi_0 \quad (12)$$

Foydalanilgan adabiyotlar

- Ch. Satish, M.M. Agarwal, Railway engineering. Oxford University press. New Delhi. 2007 y.
- Mamadaliyev A.Yu., Begmatov P.A. Temir yo‘l izi. Darslik. Toshkent. “Zebo print” nashriyoti, 2023. – 324 bet.
- Rasulev A.F., Ovchinnikov A.N., Kuznetsov I.I. Temir yo‘l izi. Darslik. Toshkent. ToshTYMI. 2018.-184 bet.
- Ашпиз Е.С. Железнодорожный путь. Учебник — Москва: ФГБУ ДПО «Учебно-методический центр по образованию на железнодорожном транспорте» 2021 г. 576 с.
- Шахунянс Г.М. Железнодорожный путь. 3-е издание, перераб. И доп. – М.: Транспорт, 1987-479с.
- Основы устройства и расчетов железнодорожного пути. /Под ред. С.В. Амелина и Т.Г. Яковлевой. – М.: Транспорт, 1990 – 367с.

**МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХУДУДИДАГИ ИЛК ДАВЛАТЛАР МАДАНИЯТИ
САЪДУЛЛАЕВА ШАҲРАБО**

Андижон давлат университети З-босқич талабаси

Shahrabosadullaeva5@gmail.com

АННОТАЦИЯ. Ушбу мақолада Марказий Осиё маданиятининг қадимги тараққиёт даврларининг беҳисоб далиллари археолог қазилма маълумотлар ва ёзма манбалар милоддан аввалги 1-минг йиллик бошларида вужудга келган Марказий Осиёнинг ilk давлатлари Бақтрия, Суғд ва Хоразм маданияти ҳақида бир оз маълумотлар беради. Уйғониш даври маданиятининг буюк намоёндалари ўз ижод, изланишларида бевосита Қадимги маданият меросга таяндилар. Аввало Марказий Осиё халқларининг Қадимги юнонлар, римликлар, месопотамияликлар, ҳиндистонликлар ва хитойликларнинг маданияти билан яқиндан таниш бўлганлиги ва маданиятнинг юқори ривожланганлигини очиб беради.

Калит сўзлар: маънавият, буюк давлат, ақл-заковат, тарих илм-фан, маданият.

КИРИШ. Кўпгина урушлар Марказий Осиё маданиятининг қадимги тараққиёт даврларининг беҳисоб далилларини йўқ қилди. Археолог қазилма маълумотлар ва ёзма манбалар милоддан аввалги 1-минг йиллик бошларида вужудга келган Марказий Осиёнинг ilk давлатлари Бақтрия, Суғд ва Хоразм маданияти ҳақида бир оз маълумотлар беради. Милоддан аввалги VIII-VII асрларга оид Афросиёб (Самарқанд), Сурхондарё воҳасидаги Қизилтепа, Қашқадарё воҳасидаги Узунқир, Хоразмдаги Кўзилиқир каби қадимги шаҳарларда ўтказилган тадқиқотлар мураккаб ижтимоий тузилма ва маданиятнинг юқори ривожланганлигини қўрсатади. Бу шаҳарлар мудофа деворлари ва сув таъминотидан иборат кучли истеҳком тизимиға ега бўлиб, ичida хунармандлар мавзеи жойлашган. Айrim шаҳарларда сарой қолдиқлари қальалар топилган. Қадимги давлатлар хўжалигининг асосий соҳаси ҳисобланган деҳқончилик тараққиётининг даражаси ҳақида кўп тармоқли суғориш тизимининг мавжудлиги бунга далилdir. Марказий Осиё давлатлари Қадимги Шарқ мамлакатлари билан яқин алоқалар ўрнатган. Мидия ва Оссурияning сиёсий тарихида фаол иштирок етиб, хунармандчилик буюмлари ва хом ашё билан (ложувардд, олтин, мис билан) савдо сотиқ қилганлар. Бу ҳақда Оссурия ва Қадимги Юнон ёзма манбаларида гапирилади. Хусусан, Бақтрияning йирик шаҳарлари, кўп сонли аҳолиси ҳақида Бақтрия шохи Оксартнинг афсонавий бойлиги ҳақида Кгесий Книдский (Мил.авв.V-IV асрлар) ёзиб қолдирган. Кўчманчи массагетларнинг удуми ва турмуш тарзи ҳақида машхур қадимги Юнон тарихчиси Герадот (Мил.авв.V аср) ёзиб қолдирган. У массагетларнинг ҳарбий куроллари (камон-ёйи, найзаси, ойболтаси)да олтиндан безак сифатидан, мисдан курол ва сотув учун кенг фойдаланишини таъкидлайди. Геродотнинг ёзишича, массагетлар ягона маъбуд қуёшга топиниб, отни қурбонлик қилганлар[1.2.3].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР. Қадимги Марказий Осиё халқларининг маънавий маданияти ҳақидаги билимларнинг бебаҳо манбаси "Авесто" ҳисобланган. "Авесто" сўзининг мазмуи изоҳга ега емас, кўпгина "Асос матни" сифатида таржима қилинади. "Авесто" дунёning енг қадимги динлардан бўлган зарўштийлик тарафдорлари учун муқаддас калима ҳисобланиб, пайғамбар Зардўшт тўплангандарга ундан ваъз ўқиган. Унинг ҳаёт даври мил.авв. IX-VI асрлар атрофида дейилади. "Авесто" ва унинг бошқа матнларининг тўпланиши кўп асрлар давомида амалга оширилган. "Авесто"нинг енг

қадимги матнлари мил.авв. II-мингинчى йилларга таълуқلى, "Авесто"нинг милодий VII асрغا тегишли бўлган тўплами турли мазмундаги 21 китобдан иборат бўлиб, унда ўша даврнинг барча билимлари жамланган. Зардўштийлик аъаналарига кўра бу ёдгорлик Езгулик ва Ёруғлик худоси Ахурамазданинг Заратужртага ваҳийси ҳисобланади. Бирок, унда қадимги мифологик тасаввурлар, мифларнинг кенг тарқалиши, қаҳрамонлик епик ривоятларидан парчалар ҳам тасвирланади. Шунингдек диний йўл-йўриқ "пайғамбар давридан" кейин зардўштийликнинг ривожланган "еътиқод рамзи" юзага келди. Ҳозиргача "Авесто"нинг айрим қисмилари, 4 китоби сақланиб қолган:

1. Видевдат-"Девлатга қарши қонунлар", бу китобда асосан зардўшт ва Ахурамазда ўртасида сухбат, йўл-йўриқ ва кўрсатмалар мазмунида бўлиб, зулмат ва ёвузылик худоси Ахримани бошқарувчи ёмонлик кучларини қайтириш ҳақида.
2. Виспрат-"ҳамма ҳукмронлар", бу китобда ибодат намозлари тўпланган.
3. Ясна-"Ибодат", "Маросим" китоби худоларга сифиниш ва мурожаатдан иборат. Яснадаги "Тот"лар номли 17 боб зардўштнинг муқаддас қўшиқларидир.
4. Яшт-"Қадрлаш", "Ҳамду сано" китоби-худоларни шарафловчи қадимги гимнлар ва езгулик худоларига ёвузыликка қарши қураш ёрдам берувчи кучлар ҳақида. Бундан ташқари, "Авесто" мажмуига "Кичик Авесто" ҳам мансуб, у авесто тилида ёзилган бўлиб, ибодат калималари жойланган.

Зардўшт юксак ахлоқий идеалдаги ва ишонтирувчи фикрлари билан биринчи ҳақ пайғамбар. Зардўшт таълимотига мувофиқ барча қуруқликнинг ўзгармаси ибтидоси Арта бўлиб, "Авесто"да ҳақиқат, олов рух дейилади. Ахурамазда тартибни сақловчи осмон худоси ёруғлик ва езгулик ҳисобланган (охура-хўшайиш, ега; mazda-идрокли, билимдон). Ахурамазданинг ўғли – Атар (олов), унинг ватани булутлардек қуриган сувлар, уларнинг макони-худудсиз ёғду. Ахурамазда 6 та руҳни-ёрдамчиларни яратди (ашема спента): езгу ақл, яхши тартиб, лаёқатли қудрат, олижаноб мўминлик, соғломлик ва боқийлик. Унга Ахриманнинг зулмат қўшини-девлар, урушлар тимсоли, очлик, касаллик, адоват ва бошка ёвузы кучлар қарама-қарши туради. Оlam ва барча инсоният ҳаётининг асосида езгулик ва ёвузылик ўртасидаги азалий қураш ётади. Зардўштийликда биринчи бўлиб есхаталогик таълимот яратилган, бунга мувофиқ жаҳон тарихи 12 минг йилни ташкил қиласди. Бу маддат тугаши билан езгулик ва ёвузылик кучларининг ҳал қилувчи ёвузылик жанги бошланади. Бутун оламни ериган metal оқими йўқ қиласди, бироқ ҳалоскор Саошянт ҳалок бўлган дунёни ва барча марҳумаларни тирилдиради, барча гуноҳларни дўзахдан чиқариб Оҳурумазданинг ideal ҳукмронлигига абадий ҳаёт кечиради. Шу тариқа зардўштийликда биринчи бўлиб охиратдаги жазо, марҳумларнинг тирилиши сўроқ куни ғояси шакланади. Бу ғоялар Доро И нинг Бехустун ёзувида ва Ксеркснинг Персеполдаги ёзувида ҳам қайд қилинади. Зардўштийлик Марказий ва Олд Осиё худудларида минг йиллар давомида ҳукмрон дин бўлиб келди ва шубҳасиз, бу дин христианлик ва ислом киби жаҳон динларининг шаклланишида катта ўрин тутди. Илмий-тарихий, амалий-дидактик қимматга ега бўлган, ушбу йилда 2700 йиллиги нишонланадишиан буюк меросимиз "Авесто"нинг бутун маъно моҳияти Инсон тақдири, унинг Истиқболига қаратилган. Жумладан, Тангрига илтижо ва мурожаатларда шундай дейилади: "Ахурамазда яратган яхшилик моясига, соғлом, ақл-хуши тетик фарзандларга, жасур, доно, турли тиллар биладиган ўғил-қизларга,

узокни кўра биладиган, юртни бало-қазоларлан ҳимоя ета олидиган ўйғонлар, яхши келажак, порлоқ ҳаётни равшан кўз билан кўра оладиган поктийнат авлодларга олқишлиар бўлсин[4].

Мил.авв. V асрда Окс дарёсининг ўнг соҳилида Милетлик Юнонларнинг манзилгоҳи ташкил топади. Шу тариқа Ахмонийлар империяси таркибида Марказий Осиё халқлари форслар, мидияликлар, бобилликлар, мисрликлар, юнонлар, хиндлар билан яқин муносабатда бўлиш, маданиятининг ҳам ўзаро таъсирига имкон яратди. Ахмонийлар империяси маданияти ҳам кўпгина мамлакат халқлари яратган илмий билимлар, диний ётиқодлар, санъат ютуқларининг синтези хисобланади. Бу маданиятга Марказий Осиё халқлари ҳам ўзининг ҳиссасини қўшган. Зардуштийлик Ахмонийларнинг давлат дини сифатида қабул қилиниши билан бирга Фарбга ҳам кенг ёйила бошлади. Ахмонийлар санаътининг Суза ва Персеполдаги улкан ёдгорлиги қурилишига Марказий Осиё минтақасидан қўплаб хом ашё келтирилган. Саройлар қурилишига Бақтриядан олтин, Суғдан ложувард ва қимматли тошлар, Хоразмдан феруза олиб борилган. 1877 йилда Тожикистоннинг Жанубидан топилган Амударё ҳазинаси маданий синтезнинг ёрқин мисолидир, ҳазинада, Ерон ва Бақтрияда тайёрланган жиҳозлар-бежирим олтин аравача, қанотли иккита қурғий шакли туширилган билакузук ҳамда даштикларга хос "Ҳайвон шакли" битилган жиҳозлар мавжуд. Марказий Осиё халқларининг маданият муносабатлари жуда кенгайди, шунингдек, маданий қадриятларнинг бойиши ва турли маданиятларнинг ўзаро таъсири жараёни еса ўз маданиятларини жуда тез ривожланиши ва бойишига ижобий таъсир қўрсатди. Ахмонийлар империяси ва Марказий Осиё маданиятига еллинизм элементлари кириб келди. Ахмонийлар салтанатини емириб ташлаган Юнон-Бақтрия босқини Марказий Осиё минтақасини, хусусан сухд маданиятини айлантириди. Юнон-Бақтрия даврида Ойхонум (Шим.Афғонистон), Саксанохур ва Таҳтисангин (Тожикистон), Даљварзин тепа, Ёрқурғон, Афросиёб Талибарзи (Ўзбекистон) каби шаҳарлар қурилди. Юнон ҳарбий манзилгоҳлари аҳолисининг тушмуш тарзи ва маданиятини акс еттирувчи еллинистик услубдан Юнон-Бақтрия шаҳарларда очиб ўрганилди. Инфоатлар тош, хом ва пишиқ ғиштдан тикланди. Устунлар коринф усулида ишланган. Сарой ва ибодат мажмуналари, гимназия, театр бинолари очиб текширилганда устунлар аттик базалтлар, акант япроқлари, палметаллар, чети нақшланган черепица-антификслар сингари унсурланган фойдаланган ҳолда кўрилган. Юнон-Бақтрия подшолигида театр санъати ва мусиқани ривожланганлиги тўғрисида маълумотлар мавжуд. Бақтрия саройларида юнонистонлик актёрлар, мусиқачи ва ракқосларнинг гурухлари сақланган. Айниқса, юнон ҳалқ театрининг "маскарс", "мим" сингари турлари кенг ёйилган. Уларни классик трагедия ва комедиялардан фарқи белгиланган матн бўлмаган, ёки матнсиз чиқилган, лекин у юнон тилини билмаган маҳаллий аҳолига тушунарли бўлган. Актёрлар шароит, томошибинларнинг руҳиятига кўра матнларни ўзгартирганлар-мусоҳаба, ҳазил-мутойиба, ҳавж, хикоя, -қўшиқ усуларида ижро етганлар. Рақс, мусиқа, кўзбўямачилик ва акрабатик машқлар театр ижрочилигининг муҳим элементлари бўлган. Ҳукмдорлар ҳомийлик қўрсатган маҳаллий актёрлар ҳам шаклланган; "Масҳарабоз" Миллий театрнинг намунасида ҳамон еллинистик белгилар сақланиб қолган. Юнон-Бақтрия маданияти синкетизми (қоиршиқлиги) турли тилларни ёнма-ён фаолият кўрсатиши, ҳар хил ёзувлар тизими ва динларнинг ўзаро сингишиб кетишида ҳам кўринади. Ерамиздан аввалги III-II асрларда оромий, Юнон-Бақтрия ёзувлари кенг ишлатилган, кейингиси юнон алфавити

асосида унга битта ҳарф қўшим (жами 25 та ҳарф) бақтрия ёзуви вужудга келган. Зардўштийлик ҳукмрон дин сифатида саклансада аҳолини юонон худолари тимсолларига сиғиниш аломатлари пайдо бўлган. Хоразм маданиятини алоҳида таъкидлаш лозим. Шу минтақа суғориладиган дехқончилик, шаҳар маданияти шаклланган енг қадимги манзилгоҳлардан бўлиб, бу ерда Ўзбекистон ҳудудидаги қадимги (ер.авв. VII-VI асрларда) давлат асосланган. Хоразм (ер.авв. IV асрларда) Aleksandr Мақдуний босқинига қадар Аҳмонийлар истилосидан озод бўлган давлат, хоразмийлар Ҳиндистон, Хитой, Яқин Шарқ ва Европа Шарқи билан қизғин савдо алоқалари билан донг таратганлар. Тарихий солнномаларда хоразмликларни тадбиркорлиги, иштиёқмандлиги қайд етилиб, уларни "илм соҳиблари" деб атаганлар. Канал, қалъя, кўпқаватли саройлар қуриш нафақат амалий малакани, балки мураккаб ҳисоб-китоб ва ўлчовларни ҳам талаб қиласи еди. Мовий йўл кўрсаткичларидан фойдаланишини билмай дашт-саҳролардан ўтиб бўлмасди. Хоразмликлар ер. I асридан VIII асригача ўзлари фойдаланган маҳсус тақвил тизимини яратдилар. Бу тақвим Ал-Берунийнинг "Қадимги ҳалқлардан қолган ёдгорликлар" асарида муфаасал тавсифланган. Унинг маълумотларини археологлар томонидан топилган, III асрга оид асл нусха ҳуддатлар ҳам тасдиқлайди. Берунийнинг маълумотига кўра, хоразмликлар мустақил астрономик кузатишлар олиб борганлар, осмоннинг юлдузлар ҳаритасини яхши билганлар[5].

ХУЛОСА. Юқоридагилардан шуни айтиш мүнкинки Ўзбекистон тарихшунос профессор-ўқитувчилари томонидан ўрганилган ёзув тарихининг уч минг йиллиги тўғрисидаги фикрлар айтилганда туркий мантлар ҳам ҳисобга олган еди. Агарда мана шу даъво тасдиқланадиган бўлса, бу жуда катта сиёсий-маънавий аҳамиятга ега бўлади. Бу еса туркий тилнинг, хусусан, ўзбек тилининг ҳалқаро тил сифатидаги илдизлари хронологияси уч минг йил билан бўйлашишини кўрсатади. Шунинг учун ушбу лойиҳида мўлжалланаётган йўналишдаги илмий иш амалга оширилса, илк ва ўрта асрлардаги ўзбек тилининг ижтимоий-сиёсий мавқеи, Марказий Осиёда кечган етник ва лингвистик вазият, минтақада буддизм, монийлик, насронийлик ва ислом динининг ёйилиши ва Шарқ тилларининг таъсири масаласи, шунингдек, аждодларимиз бунёд етган салтанатларда она тилимизнинг хуқуқий мақомини белгилашда ниҳоятда қимматли фактларни беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. - T.: Sharq, 1998. 20-b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. T.:O‘zbekiston, 2017, 9-bet.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Tanlangan asarlar, 2-jild. T.: “Ma’naviyat”, 1998, 34-bet.
4. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/251>
5. https://www.mp3lar.com/_sf/1/167_Madaniyatshunos.htm

RELS KOLEYASIDA ZAMONAVIY YO'L O'LCHOVCHI VOSITALARINI QO'LLASH

Sh.S. Raxmatov¹, ,

N.I. Begmatov², U.E. Ergashev²

¹*4-kurs talabasi,*

Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent sh.

²*dotsent v.b. "Temir yo'l muhandisligi" kafedrasи,*

Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent sh.

Annotatsiya: Maqolada rels koleyasini joriy saqlash jarayonida zamonaviy yo'l o'lchovchi vositalar shuningdek, zamonaviy yo'l o'lchovchi vagonlardan foydalanish tahlili keltirib o'tilgan.

Poyezdlar harakati xavfsizligini ta'minlashda yo'lni texnik holatini nazorat qilib borish, uni monitoring qilish temir yo'l masofasining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Rels koleyasi yo'lning quyidagi 3 ta asosiy parametri bilan xarakterlanadi:

- Iz kengligi;
- Bir izning ikkinchi izdan baland pastligi;
- Rels osti qiyaligi.

Yo'l shabloni yordamida yo'l va strelka o'tkazgichning quyidagi parametrlarini o'lchash mumkin, yani:

- iz kengligi (ширина колеи): 1515...1560 mm;
- rels izlarining balandlik bo'yicha o'zaro joylashishi: - 160...+160 mm.

Yo'l o'lchovchi vositalarning eng oddiy turi bu yo'l shabloni hisoblanadi.



1-rasm. Yo'l shabloni.

Oddiy yo'l shablonda nisbatan zamonaviy elektron yo'l shabloni bir qancha qulaylik va imkoniyatlarga ega, ya'ni:

- xotira qurilmasiga ega;
- GPS qurilmasiga ega;
- olingan ma'lumotlarni elektron qayta ishlash;
- strelka o'tkazgichlarni nosozliklarini aniklash imkoniyati.

Elektron yo'l shablondari bilan bajariladigan o'lchov turlari:

- iz kengligi: 1510-1550mm;
- bir izning ikkinchi izga nisbatan past - balandligi: -160...160 mm;
- strelkali o'tkazgichlarda o'tkazuvchi egrilik ordinatasi: 1340...1400mm, 1430-1480 mm;

- krestovina serdechnigi ishchi kirrasidan kontrrels ishchi qirrasigacha bo'lgan masofa: 1470...1500 mm;
- ariqcha kengligi: 40...100mm;

- o'tkazuvchi egrilik ordinatasi: 100...1500mm;
- rels golovkasining yonlama yemirilishi: 0...20 mm;
- rels golovkasining vertikal yemirilishi: 0...20 mm;
- ostryakning qarshisidagi ramali relsdan pasayishi: 0...35mm;
- krestovina serdechnigi ishchi kirrasidan kontrrels ishchi qirrasigacha bo'lgan masofa: 1460...1500 mm;
- krestovina usovigi ishchi kirrasidan kontrrels ishchi qirrasigacha bo'lgan masofa: 1420...1460 mm;
- ostryak qadami: 0...160mm.



2-rasm. Elektron yo'l shabloni

Elektron yo'l shablonlari ham bir qancha kamchiliklarga ega:

- ❖ katta miqdorda (yo'l xo'jaligi bo'yicha taxminan 800 dona) talab etiladi;
- ❖ narxining oddiy yo'l o'lchovchi shablonga nisbatan yuqoriligi;
- ❖ doimiy ravishda quvvatlash zaruriyat.

Bugungi kunda temir yo'llarda yo'lning texnik holatini baholash uchun raqamli yo'l o'lchovchi aravachalar o'lchanigan ma'lumotlarni yozib borish uchun mikroprotsessorli blok va raqamli monitordan iborat bo'lib yo'lning joriy kordinatalari va rels koleyasining geometrik parametrlari - iz kengligi va rels izlarining balandlik bo'yicha o'zaro joylashuvini o'lchaydi.



3-rasm. Elektron PT-10 aravachasi.

Zamonaviy raqamli yo'l o'lchovchi aravachalar quyidagi imkoniyatlarga ega:

- ✓ olingan natijalarni o‘z xotirasida saqlaydi (100 kmgacha);
- ✓ olingan natijalarni noutbuk yoki kompyuterga o‘tkazib borish va ularni taxlil qilish imkoniyati;
- ✓ katta hajmli yo‘l ta’mirlaridan (ko‘tarma ta’mir, o‘rtacha ta’mir, yalpi shpal almatirish va h.k.) keyin yo‘lning holatini tekshirish imkoniyati;
- ✓ yo‘l o‘lchovchi aravachalar konstruksiyasining soddaligi va foydalanishda qulayligi;
- ✓ yo‘l o‘lchovchi vagoni o‘tishidan oldin yo‘lning holatini tekshirish va aniqlangan kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish imkoniyati;
- ✓ yo‘lni doimiy nazorat qilish imkoniyati;
- ✓ olingan natijalarni saqlash, tahlil qilish orqali oylik, yillik xisobot va statistik ma’lumotlar tayyorlash imkoniyati.

Raqamli yo‘l o‘lchovchi ham kamchiliklarga ega, jumladan:

- ✓ har bir yo‘l o‘lchovchi aravachalari uchun qo‘sishimcha operator shtat birligi ajratish zaruriyati;
- ✓ doimiy ravishda yo‘lni o‘lhash vaqtida poyezdlar xarakati va ishchilar xavfsizligi ta’minalash maqsadida oldindan ogoxlantirish berish zaruriyati;
- ✓ yo‘l xo‘jaligi bo‘yicha yo‘lning xolatini diagnostika va monitoring qilib borish uchun markazlashgan tarmoq tashkil qilish va bu tarmoqqa barcha temir yo‘l masofalarini birlashtirish;
- ✓ yo‘l o‘lchovchi vagonlarini GPS tarmog‘iga ulash va aniqlangan kamchiliklarni bir vaqtning o‘zida onlayn tarzda markazlashgan tarmoqga va temir yo‘l masofasi boshlig‘i, yo‘l masofasi boshlig‘i o‘rinbosarlari va yo‘l ustasi mobil telefonlariga uzatish.

Yo‘lni qat’iy nazorat qilish yo‘lning geometrik parametrlarini ikkinchi darajali nazorat qilish vositasi bo‘lgan yo‘l o‘lchagichli vagonlar va avtomatritsalar tomonidan amalga oshiriladi.

Temir yo‘l qatnovi ushbu uchastkada o‘rnatilgan tezliklarda poyezdlar harakati xavfsizligi va ravonligini ta’minalash kerak. Yo‘l o‘lchovchi vagonning vazifasi har bir kilometrdagitemir yo‘lning holatini yo‘l qurilmasining geometrik parametrlariga rioya qilish darajasi, xavfli chekinishlarni bartaraf etish darajasi va ularning paydo bo‘lishining oldini olish darajasini baholashdan iborat.

Temir yo‘l tizimining parametrlari: bir izning ikkinchi izdan baland pastligi (уровен), iz kengligi, egrilik radiusi, qo’shni egri chiziqning mavjudligi va uzunligi, egrilik burchaklarini, egriliklarda tashqi izning balandligini o‘lchaydi.

Hozirgi kunda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tasaruqidagi yo‘llarni nazorat qilishda ikkita yo‘l o‘lchovchi vagonlar mavjud bo‘lib bu vagonlar tasdiqlangan grafik asosida yo‘lni nazorat qiladi. Bulardan birinchisi PS-006 yo‘l o‘lchovchi vagoni bo‘lib SNII-2 tizimida ishlaydi. Ikkinchisi №106 yo‘l o‘lchovchi vagoni bo‘lib SNII-4 tizimida ishlaydi. №106 yo‘l o‘lchovchi vagoni 2014-yilda keltirilgan bo‘lib asosan tezyurar uchastkalarga mo‘ljallangan.

XULOSA

Yo‘l ustasi va yo‘l brigadrlari temir yo‘lni joriy saqlash yo‘riqnomasi bo‘yicha yo‘l ustasi o‘ziga biriktirilgan okolotkadagi yo‘l va strelkali o‘tkazgichlarning holatini bir oyda ikki marta yo‘l brigadri esa o‘ziga biriktirilgan bo‘linmani bir oyda to‘rt marta yo‘l shabloni yordamida o‘lchab chiqish kerak. Bir okolotkaning uzunligi 15-18 km, bo‘linmaning uzunligi esa 7-9 km ni tashkil qiladi. Undan tashqari strelkali o‘tkazgichlar va stansiya yo‘llari ham okolotka tarkibiga kiradi. O‘lchangan ma’lumotlar PU-28 va PU-29 kitobiga kiritiladi.

Ma’lumki temir yo‘l masofasida ishchilarga haq to‘lashda yo‘l va strelkali o‘tkazgichlarning soz va belgilangan me’yorda bo‘lishi va yo‘l bahosi asosiy mezon hisoblanadi.

Yo‘l va strelkali o‘tkazgichlarning holatini baholashda yo‘l o‘lchovchi aravachalarining ham o‘z o‘rnini bor.

ADABIYOTLAR

1. Geoffrey H., British railway track. Published by the permanent way institution, England. 1993 y.-628 p.
2. Handbuch Gleis: Unterbau-Oberbau-Instandhaltung-Wirtschaftlichkeit Gebundene Ausgabe -12. April 2010, von Bernhard Lichtberger (Autor).
3. Bahnbau (German Edition) (Teubner Studienskripten Bauwesen) Taschenbuch –27. Februar 2012 von Volker Matthews (Autor).
4. Крейнис З.Л., Коршикова Н.П. Техническое обслуживание и ремонт железнодорожного пути. М.: УМК МПС России, 2001, 768.
5. Amirkulovich. T. S. (2023, May). APPLICATION OF MODERN SMALL MECHANISMS IN RAILWAY TRACK REPAIR. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 172-176).
6. Путевое хозяйство Под ред. И.Б. Лехно, М.: Транспорт, 1990
7. Путевые машины и механизмы. Под ред. С.А. Соломонов, М.: Транспорт, 1984г.
8. Певзнер В.О., Прохоров В.М. Организация технического обслуживания пути. М.: РГОТУПС, 2004, 138 с.

BLOK-UCHASTKA UZUNLIKDAGI ULOQSIZ YO'LLARGA O'TISHNING QULAYLIK VA KAMCHILIKLARI

**U.E. Ergashev , Toshkent davlat transport universiteti, texnika fanlari nomzodi, dotsent
v.b.**

N.S. Ilashev, Toshkent davlat transport universiteti, YMTQ-2 guruh talabasi.

Annotatsiya: Maqolada zvenoli yo'llardan uloqsiz yo'llarga o'tishda kelib chiqadigan qulayliklar, muammolar, qilinadigan qo'shimcha ishlar va ularni bartaraf qilish usullari tahlili keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: blok-uchastka, uloqsiz yo'l, zveno, tutashma biriktirgichlari

Bilamizki O'zbekiston Respublikasi rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Uning poytaxti bo'lmish Toshkent va qadimiy shahri sanalmish Samarqandga yil sayin millionlab sayyoohlar, investorlar tashrif buyurmoqda, shuningdek ichki turizm ham avvalgi yillarga nisbatan ancha rivojlanmoqda. Yo'lovchilarni uzog'ini yaqin qilishda temir yo'l transporti ham alohida o'rinn tutmoqda. Temir yo'lida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va poyezdlar ravon harakatlanishini ta'minlash maqsadida temir yo'l izi konstruksiyasiga bir qator talablar qo'yildi. Tezyurar va yuqori tezlikdagi poyezdlar harakarlanuvchi temir yo'l konstruksiyasida [1, 2, 3] ga asosan blok-uchastka yoki peregon uzunligidagi uloqsiz yo'llar barpo qilinishi kerak.

Blok-uchastka yoki peregon uzunligidagi uloqsiz temir yo'llarni barpo qilish, joriy saqlash va ularni ta'mirlash bir qancha murakkab jarayonlarni amalga oshirishni talab etadi. Shunday jarayonlardan biri blok-uchastka yoki peregon uzunligidagi uloqsiz temir yo'llarni yotqizish va optimal temperaturada maxkamlash jarayonidir.

"Toshkent – Samarqand" yo'naliishida poyezdlar harakati xavfsizligi va ravonligini ta'minlash maqsadida "Toshkent mintaqaviy temir yo'l uzeli" unitar korxonasi qarashli "Paxta – Olmazor" temir yo'l stansiyalari oralig'ining toq yo'naliishida 2000 metr uzunlikdagi blok-uchastkada uloqsiz rels pletlarini yotqizish va ularni oldindan zo'riqtirib optimal temperaturani ta'minlagan holda maxkamlash iashlari amalga oshirildi (1-rasm) [8].





1-rasm. Blok-uchastka uzunligidagi rels pletlerini yotqizish va optimal temperaturada maxkamlash jarayoni [8]

Bunday ishlar bizga qanday qulayliklar beradi?

- zvenoli yo'llardan uloqsiz yo'llarga o'tganimizda yer polotnosiga tushadigan doimiy yuklar kamayishiga, ya'ni choklarda foydalaniladigan metall sarfi zvenoli yo'llarga nisbatan har kilometrda 9 tonna ga kamayishiga erishamiz;
- hozirgi kunda yurtimizdagи mavjud kon-metallurgiya zavodlaridan har yili turli xildagi ko'plab yuklar temir yo'llar orqali tashiladi. Bunday jarayonlar bizga ballast qatlамиni ifloslanishiga olib keladi. Chunki g'ildirak va rels choklari orasidagi o'zaro dinamik ta'sirlar natijasida harakatdagi tarkibda turli xildagi silkinishlar paydo bo'ladi, shuningdek ekologiya hamda atrof muhitga ham jiddiy zarar ko'rsatadi (chang va turli xil zararli moddalar). Agar biz uloqsiz yo'lga o'tsak ballast va havoni ifloslantiruvchi va sochiluvchi yuklarni to'kilishini 1.5-2.0 barobar kamaytirishga erishamiz;
- yo'lни to'g'irlash bo'yicha ishlar:
 - rels izlarini cho'kishi (просадка);
 - rels koleyasini me`yordan ortiq kengayishi va torayishi (шаблон);
 - qiyshayish (перекос);
 - yo'lning reja bo'yicha chetlanishi (рихтовка);
 - sath bo'yicha ravon chetlanish (уровень) lar bo'yicha ishlar 25-30% ga qisqaradi.
- yo'l yuqori qurilmalarini ishdan chiqishi, ya'ni rels kallagining choklardagi qismini yemirilishi, oraliq biriktirgich (pandrol fastclip) va ankerlarini sinishi uloqsiz yo'llarga nisbatan 1.8-2.0 barobar ko'p kuzatiladi.
- poyezdlarning harakatlanishida choklarda hosil bo'ladigan solishtirma qarshilik kuchlar katta ta'sir qilgan holda sarf-harajatlarni bir muncha oshiradi . Statistika natijalariga ko'ra bir yilda 1000 km masofani uloqsiz va zvenoli yo'lda yurganda teplovozlar uchun 3.9 ming tonna dizel yoqilg'i, elektrovozlar uchun 7 mln.kvt.saat elektr energiyasi sarfini 12-15% ga kamaytirishimiz mumkin;
- dunyo temir yo'l transporti sohasi yil sayin insonlarga qulayliklar yaratilib borilmoqda, ya'ni siz poyezd ichidagi restoranda bemalol choy icha olishingiz, o'z o'rningizda xotirjam shovqin-suronsiz, miriqib dam olishingiz va suhbatdoshingizning so'zlarini bemalol

tinglay olishingiz uchun biz temiryo'lchilar albatta qulayliklarni (comfortable) ta`minlash uchun zvenoli yo'llardan uloqsiz yo'llarga o'tishimiz kerak.

Biz uloqsiz yo'llarga o'tishimizda kelib chiqadigan muammo va qo'shimcha ishlarni bartaraf etishimiz, ya`ni 1.0 - 1.1 ming kN gacha bo'ylama harorat kuchlari; rels pletidagi harorat uni o'rnatish jarayonidagi haroratga nisbatan oshganda (asosan yoz faslida), yo'lni o'z o'qidan qochishini keltirib chiqaradigan bo'ylama siqish kuchlari; harorat pasayganda rels pletlari hamda inventar relslarning tutashma (stik) biriktirgichlari (накладка) da uzilishlar, bolt va gaykalarining sinishi hamda poyezd harakati uchun xavfli katta tirkishlarni keltirib chiqaradigan cho'zish kuchlari; shu bilan bir qatorda, yana bir e'tiborga olinadigan jarayon relslarni o'z joyida elektrokontakt usulida payvandlash korxonadagidek bo'lmasligi; chunki, u yerda payvandlanganlik darajasini aniqlovchi qurilmalar va payvandlangandan so'ng, har xil kuchlar ta'sirida sinovdan o'tkazadigan asboblar bor. Shularga e'tibor bergen holatda dala sharoitida ishni olib borish kerak Agar payvandlash texnologiyasi yaxshi bajarilmasa relsning kallak va bo'yin qismida ko'ndalang darzlar va sochsimon chiziqlar paydo bo'ladi.

XULOSA

Dunyo tajribasiga qaraydigan bo'lsak jahonda temir yo'l transporti sohasi yuqori tezyurar poyezdlar va ularga mos tarzda barpo qilingan zamonaviy yo'llar bilan rivojlanib bormoqda. Biz ham bu texnologiya va konstruksiyalarga asta – sekinlik bilan o'tishimiz zarur bo'ladi. Chunki yurtimizga kelayotgan chet ellik sayyohlar va tadbirkorlarning yurtimiz haqidagi tasavvurlari ham temir yo'l sohasida yaratilib berilgan qulayliklarga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy konstruksiyalarga, jumladan uloqsiz yo'llarga o'tishlik bir qancha qulay sharoitlar bilan bir qatorda, qilinishi kerak bo'lgan ishlarimizni ham keltirib chiqaradi. Bu loyiҳalar tahlili yuqoridagi maqolada keltirib o'tildi.

ADABIYOTLAR

1. BCH 448-Н Инфраструктура высокоскоростной железнодорожной линии Ташкент – Самарканд. Общие технические требования. Ташкент, 2010. – 62 с.
2. BCH 450-Н Ведомственные технические указания по проектированию и строительству. Железные дороги колеи 1520 мм. Ташкент, 2010. – 48 с.
3. BCH 333-Н Инфраструктура скоростной железнодорожной линии Самарканд – Карши. Общие технические требования. Ташкент, 2015. – 62 с.
4. Шахунянц Г.М. Железнодорожный путь. Учебник для студентов и аспирантов вузов железнодорожного транспорта. -3-е изд., перераб. и доп.- Москва: Транспорт, 1987. — 479 с.
5. Ашпиз Е.С., А.М. Никонов, А.И. Гасанов и др. Железнодорожный путь: Учебник/ ФГБОУ “Учебно-методический центр по образованию на железнодорожном транспорте”. -544 с. 2013 г.
6. Rasulev A.F., Ovchinnikov A.N., Kuznetsov I.I. Temir yo'l izi. Darslik. Toshkent. ToshTYMI.2018.-184b.
7. Mirsalixov Z.E , Abdukarimov A.M , Begmatov P.A , Saipov.S.I . Temir yo'l izi (1-qism).
8. Temiryo'lchi gazetasining 2024 – yil 15 – fevraldag'i 7 – sonli nashri.

ZAMONAVIY ISTIQBOLLI BALLASTSIZ YO'LLAR KONSTRUKSIYALARIGA O'TISH

Sh.S. Raxmatov¹,

N.I. Begmatov², U.E. Ergashev²

¹*4-kurs talabasi,*

Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent sh.

*²*dotsent v.b. "Temir yo'l muhandisligi" kafedrasi,**


Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent sh.

Annotatsiya: Maqolada chet el zamonaviy ballastsiz temir yo'llari turlari, konstruksiyalari, shuningdek, qulay imkoniyatlari va kamchiliklari haqida va ularning batafsil tahlili keltirib o'tilgan.

Keyingi yillarda ko'p uchraydigan yo'lning **blokli ballastsiz asosi** konstruksiyasining turlari ko'p:

- rels alohida tayanchlarga tayanishi yoki yaxlit asosda yotishi;
- yig'ma yoki monolit;
- rels biriktirgichlar yordamida ushlab turish yoki plita ariqchasida mahkamlash.

Boshlang'ich narxini nisbatan kattaligiga qaramasdan (rels-shhpalli panjarali yo'ldan 2 barobar qimmatroq) ekspluatatsiya sarf-harajatlari miqdori kam bo'lishi kutiladi. Bundan tashqari ballastsiz yo'lni yotqizish, tekshirish va ekspluatatsiya qolishga doir chet el tajribasi uni ishonchlilagini hamda taxminiy xizmat muddatini 60 yilgacha bo'lishini ko'rsatdi.



1- rasm. Ballastsiz temir yo'llarning umumiy ko'rinishi

Germaniya va Yaponiyada qurilgan bunday konstruksiya yo'l 30 yildan ortiq ishlab kelmoqda. Ballastsiz yo'lning qurilish balandligi uncha katta bo'limganligi sababli tonnel, ko'pri va estakadalarda qator afzalliklarga ega.

Ballastsiz yo'l afzalliklari:

- sodda va ishonchli va yotqizish texnologiyasi;
- soz holatda saqlashning ishonchli kam xizmattalab va kam harajat texnologiyasi;
- yo'l elementlari xizmat muddatini uzayishi;
- choksiz yo'lni o'z o'qidan me'yordan ortiq darajada qochishini oldini oluvchi ko'ndalang siljishga yuqori qarshiligi;
- uzoq xizmat muddat davomida geometrik va dinamik xususiyatlarini saqlanishi.

1972 yildan boshlab ballastsiz yo'lni loyihalash, yotqizish va ekspluatatsiya qilish bo'icha eng katta tajribaga RHEDA (Reda) tipidagi yo'lni ishlatishda erishilgan. Bunday yo'lni yer polotnoda, ko'priklarda, tonnellarda, strelka o'tkazgichlari ostida vibratsiya sezgir xududlarda qo'llash tavsiya etiladi.




2-rasm. Ballastsiz yo‘lni betonlashga tayyorlash.

Hozirgi vaqtida bunday yo‘lning 10 dan ortiq konstruksiyalari ma’lum. RHEDA 2000 nemis konstruksiyasida ikki blokli shpalalar va Fosslo DFF 300 biriktirgichlardan iborat rels-shpalli panjarasi yotqizib qo‘yilgan plitalar ustida osib qo‘yiladi va yuqori aniqlik bilan loyihaviy holatda mahkamlab qo‘yiladi.

Ballastsiz yo‘lning eng katta afzalliklari:

- ✓ konstruksiyaning soddaligi, relslarni temir beton shpallarga tayanishi, uncha katta bo‘lmagan qurilish kengligiga balandligi;
- ✓ kengligi va balandligi;
- ✓ quyma betondan foydalanish va materiallarni chidamliligi;
- ✓ temir beton shpallarni asos bilan eng maqbul bog‘lanishi;
- ✓ relsni loyihaviy holatga aniq o‘rnatalishi;
- ✓ yo‘lning ishonchli ko‘ndalang va bo‘ylama barqarorligi;
- ✓ konstruksiyaga kam xizmat ko‘rsatilishi kiradi.

Betonlab tashlangan rels-shpalli panjara qo‘llaniladigan ballastsiz yo‘llar konstruksiyalarini ko‘pchiligidan farqli ravishda bu konstruksiyada yaxlit beton plitadan foydalanilgan.



3-rasm. RHEDA tipidagi ballastsiz relsosti asosi:

- 1 – V 355 shpallari (65 sm oralatib); 2 – fosslo rels biriktirgichi;
 3 – rels; 4 – bo‘ylama armaturalash (18 dona, d= 20 mm); 5 – gidravlik bog‘langan ko‘tarib turuvchi qatlam; 6 – muzlashdan himoyalash qatlami; 7 – yer polotnosti; 8 – ko‘ndalang armaturalash, d= 20 mm.

Konstruksiya qatlamlarini yotqizish ketma-ketligi:

- muzlashga chidamli qatlam- 50 sm;
- kengligi 3,4m gidravlik bog‘langan qatlam - 30sm;
- rels-shpalli panjaraga asos bo‘lib xizmat qiladigan kengligi 2,8m va qalinligi 24 sm beton plita.

Asos qatlamlari qayishqoqlik modullari:

- beton plitada - 34000 N/mm²;
- gidravlik bog‘langan qatlam - 5000- 10000- N/mm²;
- muzlashga chidamli qatlam- 120 N/mm² dan ortiq;
- asosiy maydoncha qatlami- 45N/mm² dan ortiq.
- konstruksiya UIC 71 yuklanishiga mo‘ljallangan.

Bogl (Byogl) tipidagi ballastsiz asos 300 km/s tezlik bilan harakatlanadigan Germaniyaning Nyurnberg-Ingoldshtadt yo‘lining 70 kmli uchastkasida yotqizilgan.




4- rasm. Bogl tipidagi ballastsiz konstruksiya

Yo‘lning yuqori qurilmasi konstruksiyasida oldindan yasalib, yuqori aniqlik bilan yo‘lga o‘rnatilgan va ustidan sement-bitumli eritma quyilgan bo‘ylamasiga tutashtirilgan plitalalar qo‘llaniladi. Kengligi 2,5m, qalinligi 20sm va uzunligi 6,5m plitalar bo‘ylama va bo‘ylamasiga kuchaytirilgan ko‘ndalang armaturaga ega. Ishlab chiqish jarayonida har bir plitada qistirma va biriktirgichlar o‘rnatilgan uyachali 10 juft tayanch bo‘rtmalar qoliplanadi.

Yangi liniyalarda relslar shag`alga emas, balki beton plitalarga tayanadi. Relslar millimetrik aniqligi bilan plitalarga yotqizilishi mumkin. Plita yo‘li juda kam parvarishni talab qiladi va o‘nlab yillar davomida tezyurar poyezdlarda juda yaxshi qulaylikni ta’minlaydi, bu yuqori yuqori tezlikda harakatlanish uchun muhim sifat xususiyati hisoblanadi.


Yo‘llarning taglik plitalari domino toshlari kabi birin ketin yig‘iladi. Bu printsip ko‘priklarda ham, tonnellarda ham qo‘llaniladi. Yo‘l qurilishi an‘anaviy ballast qurish usuliga qaraganda ancha tezroq. Har bir alohida plitalarning og‘irligi taxminan 5 tonnani tashkil etadi.



5 - rasm. Zublin tipidagi ballastsiz yo'l konstruksiyasi.

1- tirgovuchli beton plita; 2- gidravlik bog'langan tutib turuvchi qatlam; 3- shpal.

Zublin (Sublin) tipidagi ballastsiz yo'l beton bilan qoplanmaydigan shpallarga yotqiziladi. Ushlab turuvchi moslama bilan bog'langan 10ta shpaldan iborat paket qotmagan beton ustiga yotqiziladi. Vibratsiya ta'sirida shpallar qisman shpallar ichiga bitiriladi. Shpallar orasidagi bo'shliqlar asfalt yoki beton bilan to'ldirilishi mumkin.



6-rasm. Sublin tipidagi yo'l konstruksiyasi qurilish jarayoni.

Konstruksiyasining asosiy elementi 5,2 m x 2,4 m o'lchamdagи prefabrik plitadir. Kuchlanmagan temir beton plitaning pastki qismi, shuningdek, plitaning teshiklari elastik qatlam bilan qoplangan bo'lib, bu tizimni ikki qatlamlı elastiklik bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari tebranishlarni yoki strukturadan shovqinlarni kamaytiradi. O'rnatilgan elastik qatlam zarurat tug'ilganda tez va oson ta'mirlashni ta'minlaydi. Kamida 40mm bo'lgan bo'g'in kengligi atrof muhit ta'siridan kelib chiqadigan har qanday deformatsiyalarni qoplash uchun ikkita panelni ajratib turadi (masalan, siljish, qisqarish va harorat ta'siridan kelib chiqadigan harakatlar). Ulanish shuningdek, drenaj va kabel o'tish qismlari uchun joy beradi.

Bozberg/STEDEF yo'l konstruksiyasi po'lat rels va rezina qobiq bilan o'ralgan temir yo'l tayanch bloklari bilan bog'langan egizak shpallardan iborat. Uning barcha tarkibiy qismlari alohida almashtirilishi mumkin. Unda foydalilaniladigan shpal bloklar rezina qobiq bilan o'ralgani sababli tebranish yo'li ancha past bo'ladi va bu monolit *Rheda 2000* dan ancha yaxshi.



7 – rasm. Bozberg/STEDEF yo'l konstruksiyasida foydalilanilgan Pandrol Vipa DFC mahkamagichli yangi bloklar. (Barselona, Ispaniya).



8-rasm. Bozberg/STEDEF tipidagi ballastsiz konstruksiya.

Xulosa

So‘nggi yillarda chet el zamonaviy temir yo‘llarida ballastsiz asos yani ballastsiz yo‘llardan foydalanib kelinmoqda. Zamonaviy ballastsiz yo‘llarning ko‘plab turlari va konstuksiyalari mavjud, shuningdek, bu tipidagi yo‘llar oddiy yo‘llarga qaraganda qurilish jarayoni qimmatroq sarf harajat talab qiladi, lekin, ekspluatatsiya davri oddiy yo‘llardan ancha arzonligi isbotlab berilgan. Bu tipidagi konstruksiyalardan foydalanish faqatgina ekspluatatsiya jarayoniga ta’sir qilib qolmasdan, poyezdlar yuqori tezlikda hamda komfort harakatlanish imkonini yaratadi. Bu esa temir yo‘l transportining qulaylik, ishonchlik va xavfsizlik darajasini oshiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Mirsalixov Z.E., Abdukarimov A.M., Begmatov P.A., Saipov S.I. Temir yo‘l izi (1-qism). O’quv qo’llanma. ToshTYMI, T.:2019.
2. Ашпиз Е.С., А.М. Никонов, А.И. Гасанов и др. Железнодорожный путь: Учебник/ФГБОУ “Учебно-методический центр по образованию на железнодорожном транспорте”. - 544 с. 2013 г.
3. Rasulev A.F., Ovchinnikov A.N., Kuznetsov I.I. Temir yo‘l izi. Darslik. Toshkent. ToshTYMI.2018.-184b.
4. https://www.pilotonline.com/inside-business/article_6a7898b9-abf8-5b87-acbb-cc93b0fa794a.html
5. <https://www.monorails.org/tMspages/MagODU.html>
6. <https://www.slideshare.net/MaryDillon2/magnetic-levitation-train-research-paper-48917713>
7. <https://porr.at/en/media>
8. <https://www.railway-technology.com>
9. <https://max-boegl.de/>
10. <https://www.researchgate.net>

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

| | | | |
|----|---|---|----|
| 1 | <i>Salimov Baxriddin Lutfullaevich Ismoilov Javlonbek Azamat o'g'li</i> | “BIR MAKON, BIR YO'L” YANGI TRANSPORT KORIDORINI YARATISHNING AHAMIYATI | 3 |
| 2 | <i>Миралимов М.Х. Нормуродов Ш.У. Анваров Б.Ф.</i> | РАСЧЕТ ЖЕЛЕЗОБЕТОННОЙ ОБДЕЛКИ ТОННЕЛЯ МЕЛКОГО ЗАЛОЖЕНИЯ ПОД ТРАНСПОРТНОЙ НАГРУЗКОЙ | 6 |
| 3 | <i>Salimov Baxriddin Lutfullaevich Ergashev Davronbek Ergash o'g'li</i> | IDEAS OF SOCIAL EQUALITY OF ANCIENT GREEK SCIENTISTS | 10 |
| 4 | <i>Salimov Baxriddin Lutfullaevich Jalilov Doniyor Xayrulla o'g'li</i> | AVTOMOBIL SANOATINI TAKOMILLASHTIRISHDA NANOTEXNOLOGIYALARNING O'RNI | 14 |
| 5 | <i>Salimov Baxriddin Lutfullaevich Maxmudov Shoxrux Zokir o'g'li</i> | SOCIAL AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF AMIR TIMUR | 18 |
| 6 | <i>Salimov Baxriddin Lutfullaevich Nazirov Fayziddin Najmuddin o'g'li</i> | M.XAYDEGER VA K. YASPERSLARNING TEKNIKA HAMDA TEXNIKA FALSAFASIGA OID QARASHLARI | 22 |
| 7 | <i>Зокиров Ф.З. Нормуродов Х.У.</i> | ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ВРЕМЕННОГО УВЕЛИЧЕНИЯ НАГРУЗОК НА ОПОРЫ И ФУНДАМЕНТЫ МОСТОВ В ЭКСПЛУАТАЦИИ | 26 |
| 8 | <i>Salimov Baxriddin Lutfullaevich Raxmatov Umid Ravshan o'g'li</i> | CHARACTERISTICS OF PERSONALITY IN SOCIAL RELATIONSHIPS | 32 |
| 9 | <i>Salimov Baxriddin Lutfullaevich Abdukarimov Jumanazar Abdufatto o'g'li</i> | FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATION AND TRANSPORT IN UZBEKISTAN | 36 |
| 10 | <i>Abdullayev Orif Qosim o'g'li</i> | CHET EL FUQAROLARI TOMONIDAN VA UALAR ISHTIROKIDA SODIR ETILGAN JINOYATLARNI TERGOV QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 40 |
| 11 | <i>Normurodov Sh.U. Normurodov H.U.</i> | MAQSUD SHAHZODANING HAYOT VA IJODINING O'ZBEK ADABIYOTIDAGI O'RNI. | 44 |
| 12 | <i>Самандаров Валижон Равшанович</i> | ОИЛАВИЙ (МАИШИЙ) ЗЎРАВОНЛИК ЖИНОЯТЛАРИНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ | 48 |
| 13 | <i>Karimova Anora Baxtiyerovna. Ismatullayev Abduraim Ulfat o'g'li</i> | QIDIRUV QAZILMALARI USTUNLARI BO'YICHA GEOLOGIK KESIMLAR | 52 |
| 14 | <i>Саъдуллаева Шахрабо</i> | АМИР ТЕМУР ДАВРИ МАДАНИЯТИ ВА УНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ | 56 |
| 15 | <i>Ikromova Madina</i> | YANGI UYG'ONISH DAVRINING TAMAL TOSHI | 59 |

| | | | |
|----|---|---|----|
| 16 | <i>Sayitmurotova Maftuna Muxtorovna</i> | O'ZBEK TILI SO'Z BIRIKMALARIDA JINS SEMASINING IFODALANISHI VA PRAGMATIK TALQINI | 63 |
| 17 | <i>Khamrayeva Guli Nurmakhmatovna</i> <i>Eshquvvatova Shahnoza Dilmurod qizi</i> | REGARDING EDUCATION OF STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATURE PROTECTION | 6 |
| 18 | <i>Ибрагимова Мадина И smoиловна</i> <i>Сулейманова Асель Армановна</i> | ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ | 72 |
| 19 | <i>Примкулова Лазиза</i> | ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТИГА ФИШТ ҚҮЙГАН УЛКАН СИЙМО | 76 |
| 20 | <i>Xamidov Maqsudjon Kamolovich</i> <i>Xamidova Latofat Kamolovna</i> | TEMIR YO'L EGRILIKLARIDA O'TISH EGRI CHIZIG'I VA UNI JOYLASHTIRISH UCHUN ELEMENTLAR UZUNLIGINI ANIQLASH | 79 |
| 21 | <i>Саъдуллаева Шахрабо</i> | МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХУДУДИДАГИ ИЛК ДАВЛАТЛАР МАДАНИЯТИ | 84 |
| 22 | <i>Raxmatov Sh.S.</i> <i>Begmatov N.I.</i> <i>Ergashev U.E.</i> | RELS KOLEYASIDA ZAMONAVIY YO'L O'LCHOVCHI VOSITALARINI QO'LLASH | 88 |
| 23 | <i>Ergashev U.E.</i> <i>Ilashev N.S.</i> | BLOK-UCHASTKA UZUNLIKDAGI ULOQSIZ YO'LLARGA O'TISHNING QULAYLIK VA KAMCHILIKLARI | 92 |
| 24 | <i>Raxmatov Sh.S.</i> <i>Begmatov N.I.</i> <i>Ergashev U.E.</i> | ZAMONAVIY ISTIQBOLLI BALLASTSIZ YO'LLAR KONSTRUKSIYALARIGA O'TISH | 95 |